



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

www.xs.uz

E-mail: info@xs.uz

2025-yil 11-iyul, № 141 (9036)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni  
telefoningiz orqali skaner qiling.



## ISLOHOTLAR SAMARALARI YURTDOSHLARIMIZ HAYOTIDA AKS ETMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev 10-iyul kuni Toshkent shahridagi  
bunyodkorlik ishlari, aholining turmush sharoiti, sanoat korxonalari  
faoliyati bilan tanishdi.



Bu safargi yo'nalish Shayxontohur va Chilonzor tumanlarini qamrab oldi. Ularni Bunyodkor ko'chasi bog'lab turadi. Ushbu markaziy ko'chada san'at va madaniyat maskanlari, turli idoralar, ko'p qavatli uylar, supermarket va restoranlar joylashgan. Bu salohiyatdan foydalanib, uning 1,5 kilometr qismi xizmat ko'rsatish va gastroturizm ko'chasiqa aylantirildi.

Davlatimiz rahbari jamoatchilik vakillari bilan birga bu yerdagi sharoitlarni ko'zdan kechirdi. Yo'l bo'yi obod qilingan. Ajoyib landshaft dizayni, favvoralar, turfa chiroqlar hududga yanada ko'rk bag'ishlagan. Odamlar sayr qilishi, ovqatlanishi, mazmunli dam olishi uchun barcha qulaylik yaratilgan.

Shu maqsadda bu yerdagi 90 ta tadbirkorlik subyekti tunu kun ishlash tartibiga o'tkazildi. Shundan 45 ta korxona yangi tashkil etildi. 500 kishi ish bilan ta'minlandi.

Ko'chaga yondosh hududdagi Kamolon, Yangi

Kamolon va Kamolon darvoza mahallalarida 18 mingga yaqin aholi yashaydi. Bu o'zgarishlar, avvalo, shu insonlar turmushida seziladi. Qolaversa, hozir bu joyga yiliga 255 ming mehmon tashrif buyurmoqda. Endi ularning sonini yiliga 1 millionga yetkazish uchun sharoit bor.

So'nggi yillarda yurtimizda turizm sohasida 2 mingdan ortiq yangi tadbirkorlar ish boshladi. O'tgan yili xorijiy sayyohlar tashrifi ilk bor 10 milliondan oshdi. Hududlarda sayohat va servis infratuzilmasi yaxshi rivojlanyapti. Turizm qishloqlari, mehmon uylari, gastronomik ko'chalar qo'llab-quvvatlanyapti.

Poytaxtimizning Mirobod, Olmazor, Chilonzor, Yakkasaroy, Yangihayot tumanlarida shunday gavjum ko'chalar tashkil etilgan. Bunyodkor ko'chasi mazkur turizm halqasining bir qismi bo'ladi. Umuman, Toshkent shahrida 26 ta ko'chani tunu kun ishlaydigan gavjum ko'chaga aylantirish, 24 soat ishlaydigan savdo nuqtalarini

mingtaga ko'paytirish rejalashtirilgan.

Shu yerda zamonaviy b e k a t l a r h a m d a avtoturargohlar taqdimoti bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari Shayxontohur tumanidagi Yangi Kamolon mahallasida bo'ldi.

Mamlakatimizdagi islohotlar “nafasi” har bir hududga kirib boryapti. Aholi bandligi va turmush madaniyatiga qaratilayotgan e'tibor ushbu mahallada ham namoyon. Ko'p qavatli uylar, do'konlar, fuqarolar yig'ini binosi zamonaviy qiyofaga ega. Ichki yo'llar tekislanib, atrofi ko'kalamzorlashtirilgan.

So'lim sayilgoh va piyodalar yo'lagi, nuroniylar oromgohi, sport va bolalar maydonchalari barpo etilgan.

Yangi Kamolon mahallasida 4 ming 600 nafardan ziyod aholi yashaydi. 60 dan ortiq savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalarida mahalla yoshlari ish bilan band. Bu yil hunarmandlar maskani, dala mahsulotlari va qandolatchilik do'konlari,

novvoyxona tashkil etildi, xususiy tibbiyot punkti ochildi. Natijada mahalla ishsizlikdan xoli hududga aylandi.

Shu yerda Shayxontohur tumani “Islohotlar shtabi” faoliyati to'g'risida axborot berildi.

Shayxontohurda hunarmandchilik azaldan mavjud bo'lgan. Bugun ham tumanda odamlarni ish bilan, daromad bilan ta'minlashda bu katta manba. Shuning uchun Shayxontohur misolida xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha yangi chora-tadbirlar rejasini qabul qilamiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Aholi xavfsizligini ta'minlash, jinoyatlarning oldini olish maqsadida mahalla inspektori xonasida situatsion markaz tashkil etilgan. Unga ko'p qavatli uylarning yo'laklaridagi kuzatuv kameralari va ichki ishlar tizimining xavfsizlik dasturlari bog'langan. Bu yil mahallada bironta ham jinoyat sodir bo'lmagan.

“Yangi Kamolon” boshqaruv servis kompaniyasi mahalladagi 21 ta ko'p qavatli uyga xizmat ko'rsatadi. Ustalar va maxsus texnikalar doim shay holatda. Hisob-kitoblarda billing tizimi yo'lga qo'yilgan. Bu yil markaziy issiqlik quvurlari izolyatsiya qilindi, elektr tarmoqlari va uylarning yo'laklari ta'mirlandi. Ayrim uylarga yangi liftlar o'rnatildi.

Davlatimiz rahbari kelgusida boshqaruv servis kompaniyasi binolarini ko'p qavatli qilib qurib, yoshlar uchun kasb-hunar o'quvlari, maishiy xizmat shoxobchalarini joylashtirish bo'yicha ko'rsatma berdi. Bu yerdagidek kichik kutubxonalarni boshqa mahallalarda ham tashkil etish muhimligi ta'kidlandi.

Mahalla ayvonida aholi bilan samimiy suhbat bo'ldi.

So'nggi yillarda ko'p korxonalar ochildi, iqtisodiyot o'syapti. Shu bilan birga, yoshlarimiz ham yetishib kelyapti. Ularning ta'lim-tarbiyasi, sog'lig'i, ish o'rinlarini hozirdan o'ylashimiz kerak. Shuning uchun bu yil Toshkent shahriga 8 milliard dollar investisiya olib kelyapmiz. Buning hisobidan Shayxontohurda ham yangi-yangi ish joylari, ta'lim maskanlari, infratuzilma inshootlari yaratiladi, — dedi Prezident.

Nuroniylar otaxon va onaxonlar yurtimizdagi o'zgarishlardan xursandligini ta'kidlab, xalqimizga tinchlik-farvonlik tilab duo qilishdi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev tumandagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markaziga bordi.

Mamlakatimizda ijtimoiy davlat, ijtimoiy adolat tamoyillari ustuvor. Ushbu qadriyatlar asosida barcha hududda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari ochilib, mehr va ko'mak tizimi aholiga yaqinlashtirilmoqda.

(Davomi 2-betda).



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Matbuot xizmati surati.

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidentining

Q A R O R I

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING O'TTIZ TO'RT YILLIK BAYRAMIGA TAYYORGARLIK KO'RISH VA UNI O'TKAZISH TO'G'RSIDA

Dunyodagi har bir davlatning milliy suvereniteti va mustaqilligi shu mamlakatning xalqaro huquq subyekti sifatida jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashi, o'z xalqining tinch va farovon hayotini, uning eng muhim manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiladigan mustahkam siyosiy-ijtimoiy zamin va kuch-qudrat manbaidir.

Hech shubhasiz, 1991-yil 31-avgustda mard va oliyanob xalqimizning xohish-irodasi va azmu qarori bilan qo'lga kiritilgan milliy istiqlolimiz Yangi O'zbekistonda barpo etish yo'lidagi barcha islohotlarimiz hal qiluvchi bosqichga kirayotgan bugungi tarixiy sharoitda har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Aynan mustaqillik, barcha siyosiy-huquqiy kafolatlarni o'zida mujassam etgan holda “O'zbekiston — 2030” strategiyamizni amalga oshirish, jamiyatimizda tinchlik, do'stlik va hamjihatlik muhitini kuchaytirish, inson qadri, huquq va manfaatlarini ta'minlash, mintaqamizda yaxshi qo'shnichilik aloqalarini yanada rivojlantirish, dunyo mamlakatlari bilan faol hamkorlik qilish, Vatanimizning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yuksaltirishda beqiyos tayanch bo'lib xizmat qilmoqda.

Mamlakatimiz mustaqilligining ana shunday ulkan ahamiyatini inobatga olib, milliy istiqlolimizning o'ttiz to'rt yillik shonli sanasini Yangi O'zbekistonning taraqqiyot darajasi, jahon maydonidagi obro'-e'tiboriga har tomonlama munosib tarzda, yuksak saviyada nishonlash maqsadida **qaror qilaman:**

1. Madaniyat vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yozuvchilar uyushmasi, Yoshlar ishlari agentligi tomonidan ishlab chiqilgan **“Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!”** degan ezgu g'oyani o'zida mujassam etgan O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yilligiga bag'ishlangan bayram tadbirlarining g'oyaviy-badiiy konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda — Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq ma'qullansin.

2. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha respublika komissiyasi (keyingi o'rinlarda — Respublika komissiyasi) tuzilsin hamda uning tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Respublika komissiyasi (A.Aripov):

a) O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik bayrami (keyingi o'rinlarda — Mustaqillik bayrami) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida, shuningdek, barcha shahar va tumanlar, qishloq va ovullarda munosib nishonlanishni ta'minlash uchun Konsepsiyaning asosiy ma'no-mazmuni va yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda tegishli chora-tadbirlar dasturlarining ishlab chiqilishi va bajarilishini ta'minlasin;

b) joylarda Mustaqillik bayramining yurtimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini ta'minlash borasidagi ahamiyatiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy anjumanlar, ochiq muloqot va suhbatlar, adabiy-badiiy kechalar, milliy kino kunlari, umumxalq sayillari, madaniyat va sport tadbirlarini samarali o'tkazish maqsadida taniqli ilm-fan namoyandalari, ijodkorlar, madaniyat va san'at arboblari, sportchilar, jamoatchilik vakillaridan iborat targ'ibot guruhlarini tashkil etsin hamda ularning aniq reja asosida faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoit yaratib bersin;

v) mazkur yo'nalishda belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan har bir hudud, vazirlik va idora

rahbarlarining hisobotlarini Respublika komissiyasi yig'ilishlarida muntazam ravishda eshitib borsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida o'tkaziladigan asosiy bayram tadbirlarining dasturlarini tayyorlashga yuqori professional mahorat va tajribaga ega bo'lgan ssenarist va rejissyorlar, yozuvchi va shoirlar, bastakor va baletmeysterlar, sahna rassomlari, iste'dodli yosh ijrochilar, maqom va baxshichilik san'ati vakillaridan iborat ijodiy guruhlar keng jalb etilsin.

5. Mustaqillik bayramiga bag'ishlangan chora-tadbirlarni amalga oshirishda quyidagi ustuvor yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilsin:

a) Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha sakkiz yil oldin boshlagan keng ko'lami islohotlarimiz tufayli jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy manzarasi butunlay o'zgarib borayotgani;

b) qisqa muddatda mamlakatimiz iqtisodiyoti shiddat bilan o'sib, yalpi ichki mahsulotimiz hajmi tarixda birinchi marta 110 milliard AQSH dollaridan oshgani, “yashil” va innovatsion iqtisodiyotga o'tish, muqobil energiya manbalarini yaratish bo'yicha ulkan dastur va loyihalar amalga oshirilayotgani;

v) yangilangan Konstitutsiyamizda belgilanganidek, O'zbekiston tobora inson qadri, uning huquq va manfaatlari ulug'lanadigan ijtimoiy davlatga aylanib borayotgani, bandlikni ta'minlash, zamonaviy ish o'rinlarini ko'paytirish, kambag'allikni qisqartirish, yordamga muhtoj toifalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat dasturlari katta ijobiy natijalar berayotgani;

g) ta'lim sohasidagi islohotlar ilgari tariximizda misli ko'rilmagani o'zgarishlarga olib kelayotgani, maktabgacha ta'lim tizimida qamrov 2017-yildagi 27 foizdan hozirgi paytda 77 foizga, oliy ta'limda esa 9 foizdan 42 foizga yetgani, yurtimizda ijod maktablari, ixtisoslashgan maktablar va Prezident maktablari kabi yangi modeldagi maktablar tizimi paydo bo'lgani;

d) sog'liqni saqlash, ilm-fan, IT, madaniyat, adabiyot va san'at sohalarini rivojiga ham katta e'tibor berilayotgani, Parij Olimpiadasi va Paralimpiadasida sportchilarimiz ilk bor kuchli o'n beshtalikdan joy olgani, futbol bo'yicha 17 yoshgacha o'smirlar jamoamiz, shuningdek, milliy terma jamoamiz O'zbekiston tarixida birinchi marta jahon chempionatiga yo'llanmani qo'lga kiritgani;

ye) **“Yoshlar — Yangi O'zbekiston bunyodkorlari”** degan shior ostida navqiron avlodimizning zamonaviy bilim va kasb-hunarlar, ona tili bilan birga xorijiy tillarni, IT texnologiyalarini egallashlari, tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari, iste'dod va qobiliyatini ro'yobga chiqarishlari uchun har tomonlama qulay shart-sharoit yaratib berilayotgani, bunga javoban o'g'il-qizlarimiz turli sohalarida dastlabki quvonchli yutuqlarga erishayotganlari;

j) keyingi yillarda shahar va qishloqlarimiz jadal sur'atlar bilan obod bo'lib borayotgani, “Yangi O'zbekiston” uy-joy mavzilarini barpo etish, “Obod qishloq”, “Obod mahalla” dasturlari doirasida ulkan ishlar amalga oshirilayotgani, smart va innovatsion shaharsozlik asosida yangi shaharlar barpo etilib, ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari rivojlanayotgani;

z) ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyatimizdagi tinchlik, o'zaro do'stlik va hamjihatlik muhiti — bizning bebaho boyligimiz ekani, uni asrab-avaylash va mustahkamlash barchamizning muqaddas burchimiz bo'lib qolishi zarurligi;

(Davomi 2-betda).



“Korea Import Fair 2025”:

## O'ZBEKISTON MILLIY PAVILYONI — E'TIBOR MARKAZIDA

7 – 9 iyul kunlari Seul shahrida joylashgan “COEX” ko'rgazmalar markazida “Korea Import Fair 2025” xalqaro ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.

### Biz va jahon

Unda O'zbekiston tadbirkorlari o'z mahsulotlari bilan ishtirok etdi.

Tadbirida 100 dan ortiq davlatlardan 1500 dan ziyod tadbirkor, ishlab chiqaruvchi va biznes vakillari qatnashdi.

Ushbu ko'rgazma Janubiy Koreya bozoriga import mahsulotlarini olib kirish, yangi savdo sheriklarini topish va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda muhim platforma vazifasini bajardi.

O'zbekiston mazkur iqtisodiy anjumanda “Made in Uzbekistan” brendi ostidagi milliy ekspozitsiya bilan ishtirok etib, 9 ta alohida stend orqali mamlakatimizning eksport

salohiyati va milliy mahsulotlarini namoyish qildi. Shuningdek, 20 dan ortiq yetakchi o'zbek eksportyorlari o'z mahsulotlari bilan ishtirok etdi.

Milliy stend tarkibida quritilgan mevalar, yong'oq, sharbatlar, konserva mahsulotlari, shirinliklar, o'simlik yog'i va boshqa qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari namoyish etildi. Ushbu mahsulotlar o'zining yuqori sifati, tabiiyligi va eksportbopligi bilan xaridorlar, distribyutorlar va importyorlar tomonidan katta qiziqishga sabab bo'ldi.

O'zbekiston stendiga Koreya Respublikasi hukumati vakillari, xorijiy diplomatik korpus rahbarlari, mahalliy va xalqaro biznes



doiralari vakillari tashrif buyurdi. Ular O'zbekiston mahsulotlariga yuqori baho berib, sifat va talabga javob beradigan darajada ekanini ta'kidlashdi.

Qayd etish joizki, ushbu tadbir nafaqat Janubiy Koreya, balki jahon

bozoriga ham yurtimiz mahsulotlarini olib chiqish, shuningdek, xorijiy hamkorlar bilan yaqin munosabatlar o'rnatishga xizmat qildi.

«Dunyo» AA.  
Seul

# Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Q A R O R I OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING OʻTTIZ TOʻRT YILLIK BAYRAMIGA TAYYORGARLIK KOʻRISH VA UNI OʻTKAZISH TOʻGʻRISIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

i) **“Armiya va xalq – bir tanu bir jondir!”** degan shior asosida Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini oshirish, mard va jasur askar va ofitserlarimizning jismoniy, maʼnaviy-ruhiy tayyorgarligini yuksaltirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi ishlar amalga oshirilayotgani;

k) Oʻzbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasida yaxshi qoʻshnichilik, hamkorlik va integratsiya jarayonlarini kuchaytirishdagi oʻrni va nufuzi ortib, yangi bosqichga koʻtarilayotgani;

l) Yangi Oʻzbekistonning jahon hamjamiyatida ochiq, demokratik va dunyoviy davlat sifatidagi obroʻ-eʼtibori va nufuzi tobora yuksalib borayotgani.

6. Madaniyat vazirligi (O.Nazarbekov):

a) Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi, Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda bir hafta muddatda Toshkent shahrida Mustaqillik bayramiga bagʻishlab oʻtkaziladigan asosiy bayram tadbirining dasturi va ssenariysini Konsepsiya asosida ishlab chiqsin hamda uni yuksak gʻoyaviy-badiiy saviyada tayyorlash choralarini koʻrsin;

b) Badiiy akademiya, Yozuvchilar uyushmasi, Jurnalistlar uyushmasi bilan birgalikda **“Ona diyor – ranglar jilosida”, “Vatan uchun yashaylik!”**, **“Eng ulugʻ, eng aziz”** kabi anʼanaviy koʻrik-tanlovlarni yuqori darajada oʻtkazishni taʼminlasin;

v) Kompozitorlar va bastakorlar

Oʻzbekiston Respublikasi  
Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,  
2025 yil 10 iyul

# ISLOHOTLAR SAMARALARI YURTDOSHLARIMIZ HAYOTIDA AKS ETMOQDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Markazda 12 toifadagi muhojir insonlarga 100 dan ortiq ijtimoiy xizmatlar koʻrsatiladi. Buning uchun muassasada zamonaviy sharoitlar yaratilgan. Murojaatlarni qabul qilish, ehtiyojni baholash, xizmatni belgilash va xizmat koʻrsatish jarayonlari insonlarga qulay tarzda yoʻlga qoʻyilgan.

Eng muhimi, endilikda vazifa bir marta yordam bilan tugamaydi. Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchining keyingi holati, oʻzini oʻnglashi ham monitoring qilib boriladi. Mazkur barcha jarayon raqamlashtirilgan va daxldor tashkilotlar bilan bogʻlangan.

Shayxontohurdagi markazda 25 nafar mutaxassis hamda mahallalarda 51 nafar ijtimoiy xodim faoliyat koʻrsatmoqda. Nogironligi boʻlgan bolalar va shaxslar, yolgʻiz keksalar bilan manzilli tarzda ish yuritilmoqda.

– Bu yer har bir insonning dardi bilan yashaydigan, ularni rozi qiladigan dargoh. Bu tizim orqali jamiyatimizda ijtimoiy adolat, inson qadri qaror topadi, – dedi Prezidentimiz.

Shu yerda davlat-xususiy sheriklik asosida “Imkoniyatlar olami” muassasasi tashkil etilgan. Davlatimiz rahbari undagi sharoitlarni ham koʻzdan kechirdi.

Muassasada 3 yoshgacha goʻdaklar uchun erta aralashuv, nogironligi boʻlgan bolalar uchun ijtimoiy moslashuv va reabilitatsiya, shuningdek, kunduzgi parvarish va qarab turish xizmatlari tashkil etilgan. Hozirda bu 80 ga yaqin insonning ogʻirini yengil qilmoqda. Ularga 12 nafar malakali xodim mehr-eʼtibor koʻrsatmoqda.

Soʻng Prezident Shavkat Mirziyoyev Chilonzor tumanidagi sanoat hududida amalga oshirilayotgan loyihalar bilan tanishdi.

Mazkur hudud Beshqoʻrgʻon va Tirsakobod mahallalari hududida joylashgan boʻlib, 320 gektar maydonni egallagan. Kichik sanoat zonasini qamovidagi ushbu majmua Prezidentning 2023-yil 3-iyuldagi qarori asosida tashkil etilgan. Unga muvofiq transport,

muhandislik-kommunikatsiya va yoʻl infratuzilmasining yaxshilangani sanoat va tadbirkorlik rivojiga zamin yaratdi.

Bu yerda xalqaro standartlarga muvofiq energiya tejamkor, ekologik xavfsiz ishlab chiqarish quvvatlari barpo etildi. Hozirgi kunda bunday korxonalar soni 531 taga yetdi. Ularda yaratilgan ish oʻrinlari soni esa 20 mingga yaqinlashdi. Yillik ishlab chiqarish salohiyati ham kam emas – 6 trillion 800 million soʻm. Joriy yilda hududdagi 50 ta korxonada 180 million dollarlik mahsulot eksport qilinadi. Ilgari Chilonzorda hech qachon bunday koʻrsatkichlar boʻlmagan.

Davlatimiz rahbari ushbu hududdagi “Tarleplast” korxonasida boʻlib, ishlab chiqarish jarayonini koʻzdan kechirdi.

Ushbu loyihaning umumiy qiymati 25 million dollar. Korxonaga Yevropaning yetakchi kompaniyalaridan 12 turdagi zamonaviy uskunalar keltirib oʻrnatilgan. Natijada bu yerda yiliga 90 ming tonna temir quvur va poʻlat profililar ishlab chiqarish imkoniyati yaratildi. Bu mahsulotlarni pulga chaqqanda 900 milliard soʻm degani. Korxonada 120 ga yaqin kishilar doimiy ish bilan taʼminlandi.

Ahamiyatlisi, yuqori bosimga va tashqi taʼsirlarga chidamli quvurlar turi, hajmi va narxi boʻyicha raqobatbardosh. Buning tasdigʻini oʻtgan yili 4 million dollarlik mahsulot Rossiya, Qozogʻiston, Tojikiston va Qirgʻiziston kabi mamlakatlarga eksport qilinganida ham koʻrish mumkin. Endi sotuv geografiasini yanada kengaytirish moʻljallangan.

Davlatimiz rahbari mazkur industrial hududda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar koʻrgazmasini koʻzdan kechirdi. Yaqin istiqboldagi sanoat loyihalarini taqdimot qilindi.

Jumladan, koʻp qavatli ishlab chiqarish binosi va monomarkaz tashkil etilishi koʻzda tutilgan. Buning natijasida hududda yana 100 ta yangi loyiha amalga oshiriladi, qoʻshimcha 3 mingga ish oʻrni yaratiladi. Loyihalar qurilish, farmatsevtika, elektrotexnika, poligrafiya, avtomobilsozlik, tikuv-

trikotaj va qandolatchilik kabi yoʻnalishlarni qamrab olgan.

Prezidentimiz tadbirkorlar bilan suhbatlashdi. Qoʻshilgan qiymatli mahsulotlar tayyorlash, ish oʻrinlarini koʻpaytirish hamda xizmatlarni rivojlantirish boʻyicha koʻrsatmalar berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tumandagi industrial hududda joylashgan “Eman materials” korxonasida ham boʻldi.

Bugun dunyodagi iqtisodiy tebranishlar sharoitida, avvalo, ichki imkoniyatlardan foydalanish, eng koʻp ish oʻrni yaratadigan sohalarini himoyalash zarurati tugʻilmoqda. Mamlakatimizda toʻqimachilik, qurilish materiallari, mebelsozlik ana shunday sohalar sirasiga kiradi. Ularda bir million nafarga yaqin aholi ishlayotgan.

Jumladan, mebelsozlikka ixtisoslashtirilgan 7 ming 500 ta korxona faoliyat yuritmoqda. Oʻtgan yilning oʻzida 920 ta yangi korxona ochilgan. Sohada 6 trillion 700 milliard soʻmlik mahsulot tayyorlanib, 20 million dollarlik mebel eksport qilingan.

Xorazm viloyatining Xonqa tumani tajribasi asosida boshqa joylarda ham mebelchilik markazlari tashkil etilmoqda. Sohadagi tadbirkorlarning chet eldan xomashyo, furnitura va aksessuar olib kelishi, eksport bozorlariga chiqishi davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanmoqda.

Chilonzor tumanidagi industrial hududda mebelsozlikka ixtisoslashtirilgan oʻnga yaqin shirkatlar bor. “Eman materials” korxonasi tashabbuskorning 10 million dollar mablagʻi evaziga tashkil topgan. Bu yerda yiliga 10 ming tonna furnitura va mebelsozlik buyumlari ishlab chiqarilmoqda. Ular kooperatsiya asosida yurtimizdagi minglab korxonalarga yetkazib berilyapti. Endi eksportga chiqarish ham rejalashtirilgan.

Korxonada 200 kishi ish bilan taʼminlangan. Ahamiyatlisi, shu yerning oʻzida mebelsozlik oʻquv markazi ham tashkil etilgan. Buning uchun Italiya va Turkiya kabi davlatlardan mutaxassislar jalb qilingan.

Shuningdek, korxona tomonidan buyurtma asosida mebel ishlab chiqarish, loyihalashtirish, kesish, uskunalar taʼmirlash kabi qoʻshimcha xizmatlar ham koʻrsatiladi.

Majmuada koʻrgazma zali ham tashkil etilgan boʻlib, bu yerda poytaxtdagi nomdor – brend mahsulotlar bir joyga jamlangan. Bu tizim sotuvchi, xizmat koʻrsatuvchi va oluvchiga qulaylik yaratmoqda.

Davlatimiz rahbari korxonadagi ish jarayonini koʻzdan kechirib, mutaxassislar bilan suhbatlashdi. Mebelsozlik tarmogʻida mahalliyashtirish va qoʻshilgan qiymat yaratish boʻyicha hali foydalanilmagan juda koʻp imkoniyat borligi koʻrsatib oʻtiladi.

Shu yerda Chilonzor tumanida tashkil etilgan “Islohotlar shtabi” faoliyati haqida axborot berildi. Aholi bandligini taʼminlash, kambagʻallikni qisqartirishga qaratilgan yangi takliflar va kutilayotgan natijalar koʻrib chiqildi.

Qayd etilishicha, tumanda joriy yil boshida kambagʻallik darajasi 7 foizdan yuqoriroq boʻlgan boʻlsa, birinchi yarim yillik yakunlari boʻyicha bu raqam 2,2 foizga tushgan. Manzilli rejaga koʻra tumanni yil yakuniga qadar kambagʻallik va ishsizlikdan xoli hududga aylantirish maqsad qilingan. Buning uchun oilalar imkoniyatini yuzaga chiqarish, mikroloiyhalarni amalga oshirish, yangi tadbirkorlik subyektlarini tashkil qilish, norasmiy ish oʻrinlarini qonuniylashtirish choralari koʻriladi.

Prezident aholi bandligiga qaratilgan tashabbuslarni hamisha qoʻllab-quvvatlashini bildirdi. Investitsiyalarni jalb etib, imkoniyatlarni loyihaga aylantirish, kichik korxonalar faoliyatini kengaytirish zarurligini taʼkidladi. Iqtisodiyot va investitsiya sohalarini masʼullariga tadbirkorlar bilan doimiy uchrashib, muammolarini hal etish, takliflarini yuzaga chiqarish boʻyicha topshiriqlar berildi.

Ziyodulla JONIBEKOV,  
Ikrom AVVALBOYEV,  
Oʻza muxbirlari.

## Munosabat

## YOʻLLARDA ADOLAT VA XAVFSIZLIKNI TAʼMINLASH – USTUVOR MAQSAD

Prezidentimiz raisligida boʻlib oʻtgan yoʻl harakati xavfsizligi masalalariga bagʻishlangan videoselektor yigʻilishi mamlakatimiz uchun eng ogʻirliq nuqtalardan biriga aylangan muammoning yechimiga davlat miqyosida qanchalik jiddiy yondashilayotganini yana bir karra namoyon qildi.

Yigʻilishda taʼkidlanganidek, oʻtgan yilning oʻzida yoʻl-transport hodisasida 2 203 nafar fuqaro hayotdan koʻz yumgani, har toʻrtinchi avariya oʻlim bilan yakunlanayotgani – barchamizni hushyorlikka chorlashi, masʼuliyatni chuqur his etishga undashi shart.

Eʼlon qilingan yangi tashabbuslar va dasturlar partiyamizning gʻoyalari bilan hamohang ekani biz uchun alohida ahamiyatga ega boʻldi. Bu, oʻz navbatida, oldimizga belgilab olgan maqsadlarimizni hayotga samarali tatbiq etish imkoniyatidir.

Eng avvalo, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan “Surunkali qoidabuzarlar” dasturi va qoidabuzarliklar uchun jazo choralarini kuchaytirish, xususan, tezlikni 2-3 karra oshirganlarni haydovchilik huquqidan mahrum qilish taklifi “Adolat” SDPning ashaddiy qoidabuzarlarga nisbatan muhosasiz kurash olib borish haqidagi pozitsiyasiga mushtarak va ayni davr uchun muhim tashabbusdir. Zero, “Jarimani toʻlab, bilganimdan qolmayman” degan qarashga endi oʻrin boʻlmaydi.

Biz bu boradagi choralarni yanada kuchaytirish tarafoirimiz va oʻzimizning eng qatʼiy taklifimizni yana bir bor eslatib oʻtmoqchimiz: transport vositasini mast holda

boshqarib, odam oʻlimiga sababchi boʻlgan shaxslar umrbod haydovchilik huquqidan mahrum qilinishi shart. Bu adolatning eng oliy koʻrinishi boʻlar edi.

Xavfsiz infratuzilma – xavfsiz hayot garovi. Yoʻl infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan “Xavfsiz yoʻl” milliy dasturi va buning uchun alohida jamgʻarma tashkil etilishi partiyamizning yoʻllarni rivojlantirish, piyodalar uchun xavfsiz sharoit yaratish borasidagi gʻoyalarga toʻla mos keladi. Ayniqsa, muammolarni aniqlash va mablagʻlarni yoʻnaltirishda aholi fikrini oʻrganuvchi elektron portalning ishga tushirilishi shaffoflik va jamoatchilik nazoratini taʼminlashda ulkan qadamdir.

Ushbu dastur doirasida yangi quriladigan va taʼmirlanadigan yoʻllarni bosqichma-bosqich sement-beton qoplamasiga oʻtkazish masalasini koʻrib chiqishni taklif qilamiz. Bu dastlabki xarajatlari yuqoriroq boʻlsa-da, uzoq yillik chidamliligi va kam taʼmirlalibligi evaziga oʻzini toʻliq oqlaydigan, strategik jihatdan toʻgʻri sarmoyadir.

Yigʻilishda jamoat transporti faoliyatini subsidiyalash, yoʻnalishlarni optimallashtirish va tashuvchilarning masʼuliyatini



oshirish boʻyicha belgilangan vazifalar, partiyamiz dasturiy maqsadlarida qayd etilganidek, tartibga solingan jadval, elektron toʻlov tizimi va qulay transport vositalari shaharlarimizdagi tirbandlikni kamaytirish hamda fuqarolarning vaqtini tejashga xizmat qiladi.

Albatta, partiya yoʻl harakati xavfsizligi sohasidagi islohotlarni, Prezidentimiz tomonidan belgilangan barcha vazifalarni toʻliq qoʻllab-quvvatlaydi. Biz fuqarolarimiz xavfsizligiga daxldor tashabbus va vazifalarning amalga oshirilishida, tegishli qonunchilik bazasini takomillashtirishda faol ishtirok etishga hamda ijro ustidan qatʼiy parlament va jamoatchilik nazoratini oʻrnatishga tayyormiz. Zero, har bir fuqaroning xavfsiz va adolatl muhitda yashash huquqini taʼminlash – barchamizning burchimiz!

Robaxon MAHMUDOVA,  
Oliy Majlis Qonunchilik  
palatasidagi Oʻzbekiston  
«Adolat» SDP fraksiyasi rahbari.

## HUSHYORLIK – HAM HAYDOVCHI, HAM YOʻLOVCHI UCHUN MUHIM

Yoʻl harakati xavfsizligini taʼminlash – nafaqat davlat, balki butun jamiyat uchun ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Chunki har kuni yuz minglab insonlar yoʻllarda harakatlanadi. Shu bois yoʻllardagi tartib, qulaylik va xavfsizlik – umumiy hayot sifati, shu bilan birga, ijtimoiy barqarorlik mezonini.

Kuni kecha Prezidentimiz raisligida oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida aynan shu, yaʼni harakat xavfsizligini taʼminlash, infratuzilmani yaxshilash va tirbandliklarni kamaytirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Yigʻilishda avvalgi ishlar tahlili asosida dolzarb muammolarga aniq va amaliy yechimlar taklif etildi. Albatta, soʻnggi yillarda sohada bir qator islohotlar amalga oshirildi: onlayn murojaatlar tizimi joriy etildi, yoʻl harakati xodimlari texnik jihatdan taʼminlandi, sunʼiy intellekt orqali qoidabuzarliklar aniqlana boshlandi. Biroq mavjud muammolar hamon jiddiy eʼtiborni talab qilmoqda.

Maʼlumotlarga koʻra oʻtgan 2024 yilda mamlakat boʻylab 9 mingga ortiq yoʻl-transport hodisalari qayd etilgan. Natijada 9 ming kishi jarohat olgan, 2 ming 200 dan ziyod fuqarolar

jamgʻarmasi faoliyati qayta tashkil etiladi. U jamoatchilik nazorati asosida faoliyat yuritadi. Yaʼni yoʻllarga sarflanadigan har bir soʻm manzilli, shaffof va oqilona yoʻnaltirilishi shart qilib qoʻyiladi. Jamgʻarma mablagʻlari, birinchi navbatda, yoʻl-transport hodisalari tez-tez yuz beradigan yoʻl uchastkalarini tartibga solish ishlariga yoʻnaltiriladi.

Ayni paytda yoʻl harakatida jamoatchilik ishtirokini taʼminlashga qaratilgan yana bir muhim tashabbus – aholi fikrini oʻrganishga moʻljallangan elektron portalning ishga tushirilishidir. Endi fuqarolar bevosita ovoz berish orqali qayerga yoʻl belgisi, piyoda yoʻlagi yoki svetfor kerakligini oʻzlar koʻrsata oladi. Eng muhimi, qilingan ishlar natijasi foto va video tarzda ochiq eʼlon qilinadi, xalqning oʻzi ularni baholaydi. Bu – shaffoflik, hisobot berish va xalq manfaatlariga xizmat qilishga qaratilgan davlat siyosati hayotda oʻz ifodasini topayotganining yaqqol isboti.

Yoʻllarda xavfsizlikni taʼminlash, avvalo, jamiyatning umumiy madaniyati va fuqarolarning shaxsiy masʼuliyatiga bogʻliq. Bu faqat davlat organlarining vazifasi emas – qoidalarga rioya qilish, oʻzaro hurmat va hushyorlik har birimizning kundalik burchimizga aylanishi zarur. Zero, yoʻllardagi tartib hayotimizdagi tinchlik va xavfsizlikning ajralmas qismidir.

Sapargul UTEMURATOVA,  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qoʻmitasi raisi oʻrinbosari.

Xitoyning Sindao shahrida Shanxay hamkorlik tashkilotiga aʼzo davlatlarning standartlashtirish yoʻnalishi boʻyicha hamkorlik yigʻilishi boʻlib oʻtdi.

## Senat qoʻmitalarida



## MAQSAD – YAGONA OʻLCHOVLAR BIRLIGINI YARATISH

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qoʻmitasining majlisida “Xalqaro metrik Konvensiyaga (Parij, 1875-yil 20-may, 1907-yil 17-oktyabrda, 1913-yil 11-oktyabrda va 1921-yil 6-oktyabrda) oʻzgartirish va qoʻshimchalar bilan) Oʻzbekiston Respublikasining qoʻshilishi haqida”gi qonun dastlabki tarzda muhokama qilindi.

Unda senatorlar, xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining doimiy komissiyalari aʼzolari, Oʻzbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi vakillari, olimlar, soha mutaxassislari, ekspertlar hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Mazkur hujjatning asosiy maqsadi barcha davlatlar uchun oʻlchovlar birligini taʼminlaydigan umumiy va ishonchli etalonlar yaratish, ularni saqlash, milliy etalonlarni xalqaro prototiplari bilan qiyoslash va oʻzaro tan olish imkonini beruvchi yagona tizimni shakllantirish hamda bu orqali davlatlar oʻrtasidagi texnik hamkorlikni kuchaytirishdan iborat.

Taʼkidlanganidek, Konvensiyada ishtirok etuvchi davlatlarning metrologik standartlar birligini taʼminlash, shu jumladan, etalonlar va aniqlik shkalalarini hamda geodezik oʻlchovlarni solishtirish va kalibrash, milliy etalonlarni xalqaro prototiplari bilan davriy solishtirish hamda xalqaro prototiplarni saqlash kabi muhim masalalar nazarda tutilgan.

Senatorlar aytishicha, mazkur

qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda Xalqaro tarozi va oʻlchovlar byurosi faoliyatida faol ishtirok etish, ovoz berish hamda byuroning konsultativ qoʻmitasiga oʻtkaziladigan saylovlarda oʻz nomzodlarini ilgari surish imkonini oshiradi. Shuningdek, byuroning ilmiy va texnik laboratoriyalaridan foydalanish hamda mutaxassislar malakasini kengaytirishga zamin yaratadi. Unga aʼzo boʻlish mamlakatning xalqaro reyting va indekslardagi oʻrnini yaxshilash, investitsiyalar jalb etuvchanligini oshirish, eksport salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, mazkur byuroga aʼzo davlatlar oʻrtasidagi navbat asosida byuro laboratoriyalarida etalonlarni qoʻshimcha xarajatsiz kalibrlashdan oʻtkazish va Oʻzbekistonning Jahon savdo tashkilotiga aʼzo boʻlishi yoʻlida tashqi savdo aloqalarini olib borishda texnik toʻsiqlarni bartaraf etish imkonini beradi.

Muhokama yakunida qoʻmitaning tegishli qarori qabul qilindi.

## KUN TARTIBIDA – TOʻLOV XIZMATLARI BOZORI MUAMMOLARI

Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qoʻmitasi majlisida qator qonunlar dastlabki tarzda muhokama qilindi.

Xususan, “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga toʻlov tizimi operatorlari va toʻlov tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun bilan toʻlov xizmatlari bozorida xavfsizlikni taʼminlash masalalariga oydinlik kiritilmoqda. Taʼkidlash kerakki, ushbu qonun moliyaviy firibgarliklarning oldini olishga, toʻlov tizimi operatorlari va toʻlov tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirishga, shuningdek, isteʼmolchilar huquq-larini samarali himoyalashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, senatorlar tomonidan kun tartibi doirasida “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun ham koʻrib chiqildi. U jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlari samarali

himoya qilinishini taʼminlashga va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etishga xizmat qilishi aytiladi.

Majlisda “Masʼuliyati cheklangan jamiyatlar toʻgʻrisida”gi qonun ham muhokama markazida boʻldi. Xorijiy tajribadan kelib chiqib amaldagi normalarni tizimlashtirish va birxillashtirish hamda ularni toʻldirish zarurati yuzaga kelmoqda. Ushbu qonunning qabul qilinishi ana shunday boʻshliqlarni bartaraf etishga qaratilgani taʼkidlandi.

Muhokamalar jarayonida senatorlar ushbu qonunlar kelgusida toʻlov xizmatlari bozorida xavfsizlikni taʼminlashiga urgʻu berdi. Shuningdek, mazkur hujjatlar isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilishga va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etishga qaratilganligi alohida aytiladi.

Yakunda qoʻmitaning tegishli qarori qabul qilindi.

“Xalq soʻzi”.

## INSON QADRI – OLIY MEZON

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar yurt taraqqiyyoti,jamiyat farovonligi va fuqarolar hayotini yaxshilashga qaratilgan. Beqiyos oʻzgarishlar nafaqat tizimni modernizatsiyalash,balki davlat va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlarni qayta shakllantirishga xizmat qilayotgani bilan ham ahamiyatli. Bu jarayonda davlat boshqaruvi faoliyatini ochiqlash,fuqarolar fikrini inobatga olish va xalq bilan doimiy muloqot mexanizmlarini yoʻlga qoʻyish ustuvor vazifalardan biriga aylandi.

## Fikr

Shu oʻrinda tabiiy savol tugʻiladi: xoʻsh, bugun aholining haqiqiy ehtiyojlari va dolzarb muammolari yechimiga qay darajada eʼtibor qaratilmoqda? Davlat idoralarining mutasaddilari va boshqa masʼullarning fuqarolar murojaatlariga munosabati qanday?

Qayd etish kerak, Prezidentimizning “Inson qadri uchun” tamoyili bugungi davlat siyosatida qaror qabul qilish mezoniga aylangan. Ushbu yondashuv inson huquqlarini taʼminlash, fuqarolarning hayot sifati va farovonligini oshirishga qaratilgan. Lekin har qanday islohot amaliyotga joriy etilganda muayyan toʻsiq va muammolar bilan toʻqnash kelishi tabiiy.

Shu nuqtayi nazardan qargalanda, bugungi kunning eng muhim masalalaridan biri – xalq bilan muloqotning tizimli va samarador tashkil etilishi sanaladi. Murojaat qilish imkoniyati mavjud boʻlishi bilan birga,

bu murojaatlarga qanday munosabatda boʻlinmoqda, ularning yechimidan qanday natijalar olinmoqda – mana shu jihatlar asosiy mezonga aylanishi kerak.

Raqlamlarga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, 2024-yilda Prezident Xalq qabulxonalariga 1 mln. 200 mingdan ortiq murojaatlar kelib tushgani aholi faolligining, huquqiy madaniyat va fuqarolik masʼuliyatining oʻsib borayotganini koʻrsatadi. Ayni chogʻda bu koʻrsatkich tizimdagi yetarli samaradorlikka erishilmaganligini ham anglatishi mumkin. Chunki muammosi tez va oddiy tarzda hal etilgan fuqaro qayta murojaat qilishga muhtoj boʻlmaydi. Demak, murojaatlar ortidagi real sabablarga yetarli eʼtibor qaratish – muhim vazifa.

Aksariyat hollarda fuqarolar oʻz muammosini avval mahalliy darajada – mahalla, tuman hokimiyati orqali hal qilishga urinadi. Biroq mahalliy

darajadagi masʼullar tomonidan yechim topilmagan holatlarda murojaatlar markaziy organlarga yoʻnaltiriladi. Bu esa ayrim hollarda byurokratik toʻsiqlar, ish yuritishdagi sustkashlik va fuqaro manfaatlariga nisbatan befarqlikning mavjudligidan dalolat beradi.

Ayni paytda fuqarolar murojaatlarini qabul qilish va koʻrib chiqish boʻyicha turli institutlar faoliyati kuchaytirildi: Prezident Xalq qabulxonalari, sayyor qabullar, ommaviy eshituvlar, elektron platformalar – bularning barchasi fuqarolarning davlat bilan muloqotini yaxshilashga qaratilgan. Biroq bu institutlar barcha hududda samarali ishlayapti, deya aytolmaymiz. Masalan, ayrim tumanlarda sektor rahbarlarining aholi bilan muloqoti tizimli va ochiq boʻlgan holda boshqa hududlarda bu jarayon rasmiyatchilikdan uzoq ketmagan.

Murojaatlar haqida soʻz ketganda, muhim jihatlardan biri – ularni tahlil qilish va umumlashtirish orqali tizimli kamchiliklarni bartaraf etish, oldini olishdir. Chunki har bir murojaat ortida inson taqdiri va davlatga boʻlgan ishonch yotadi. Zero, Prezidentimiz fuqarolar murojaatlariga toʻgʻri va tezkor javob berish kerakligini koʻp bor taʼkidlaydi. Ayniqsa, xalqning muammolarini eshitish va ularga yechim topish har bir rahbarning kundalik burchi ekani doimiy eslatiladi.

Shu bois biz, deputatlar saylovchilarimiz bilan muloqotda boʻlib, ularning muammolari va takliflarini aniqlab, davlat idoralariga samarali yechimlar taklif qilishimiz ayni muddao. Binobarin, muloqotning eng muhim mezonini – fuqaro muammosining toʻliq, oʻz vaqtda hal boʻlishi. Bu raqamlarda emas, hayotda namoyon boʻladi. Masalan, ishsiz yosh ishga joylashsa, talabanning shartnoma toʻlovi boʻyicha yengillik beriladigan mexanizm ishlasa, nogironligi boʻlgan shaxsga munosib shart-sharoit yaratilsa – mana shu holatlarda davlatning fuqaro bilan munosabatlari toʻgʻri yoʻlga qoʻyilgan boʻladi.

Xalqning ovozi eshitish – bu faqatgina murojaatni qabul qilish emas, balki uni anglash, tahlil etish, yechim topish va amalga oshirish tizimini yoʻlga qoʻyishdir. Davlat organlari nafaqat samarali ishlashi, balki xalq dardini oʻz dardi, deb bilishi lozim. Zero, taʼsirchan islohotlar va barqaror taraqqiyot poydevori – faqatgina ana shu insoniy yondashuvga tayangan holdagina mustahkam boʻlishi mumkin.

Nazira MUXTOROVA,

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mehnat, sogʻliqni saqlash va ijtimoiy masalalar qoʻmitasi raisi.

## Senatorlar – hududlarda

## AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH HOLATI OʻRGANILDI

Oliy Majlis Senatining Yoshlar,xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qoʻmitasi raisi Orziguil Qozixonova Fargʻona viloyatiga amalga oshirgan xizmat safari doirasida joylarda aholini ijtimoiy himoya qilish masalalari,xotin-qizlar va yoshlar bilan olib borilayotgan ishlar,shuningdek, “mahalla yetilligi” faoliyatini oʻrgandi.

Xususan, senator Fargʻona shahridagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar mutasaddilarga tegishli tavsiyalar berildi. Shuningdek, Xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazida zoʻravonlikdan jabrlangan ayollar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, ularga huquqiy, psixologik va ijtimoiy yordam koʻrsatish amaliyoti tahlil etildi. Xizmatlar sifatini yanada oshirish,

muloqot va hamkorlikni kengaytirish yuzasidan mutasaddilarga tegishli tavsiyalar berildi. Shuningdek, Xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazida zoʻravonlikdan jabrlangan ayollar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, ularga huquqiy, psixologik va ijtimoiy yordam koʻrsatish masalalari atroflicha oʻrganildi. Mutasaddi rahbarlar

zimmasisga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq vazifalar yuklatildi hamda xotin-qizlarni jamiyatga samarali moslashtirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligi taʼkidlandi.

Bundan tashqari, Beshbola va Mustaqillik mahallalarida “mahalla yetilligi” faoliyati tahlil etildi. Mahalla raisi, profilaktika inspektori, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, ijtimoiy xodim va boshqa masʼullarning aholi bilan ishlash holati muhokama qilindi. Muloqotlar davomida aholi muammolarini aniqlash, ularga joyida yechim topish, yoshlar

va xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish hamda huquqiy bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan ishlarni kuchaytirish lozimligi qayd etildi.

Senator tomonidan davlat va nodavlat tashkilotlari oʻrtasida samarali hamkorlikni yoʻlga qoʻyish, jamoatchilik nazoratini yanada jonlantirish orqali ijtimoiy barqarorlikni taʼminlash muhimligi alohida taʼkidlandi. Xotin-qizlar va yoshlarning tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash, kasbiy malakasini oshirish hamda bandligini taʼminlash masalalariga ham eʼtibor qaratildi.

“Xalq soʻzi”.

## Muloqot

## Yoshlar parlamentining xalqaro hamkorlikda ishtiroki faollashtiriladi

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar,tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qoʻmitasida Yoshlar parlamenti aʼzolarining xalqaro hamkorlik borasidagi ishtirokini faollashtirish yuzasidan ochiq muloqot tashkil etildi.

Mazkur tadbir yoshlarning xalqaro munosabatlar va parlamentlararo hamkorlik sohasidagi bilim hamda koʻnikmalarini yanada mustahkamlash, ularni xalqaro jarayonlarga faol jalb etish, parlament diplomatiyasidagi ishtirokini qoʻllab-quvvatlash maqsadida oʻtkazildi.

Tadbir avvalida 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan oʻtkazilgan uchrashuvda davlatimiz rahbari tomonidan yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish borasida bildirilgan muhim tashabbuslarga eʼtibor qaratildi.

Uchrashuvda Yoshlar parlamenti faoliyatining asosiy yoʻnalishlari,

qonun ijodkorligi jarayonidagi ishtiroki, shuningdek, yosh ishbilarmonlar va tadbirkorlar tomonidan ilgari surilayotgan innovatsion gʻoyalar yuzasidan fikr almashildi.

Jumladan, muloqot doirasida Yoshlar parlamentining xalqaro hamkorlik yoʻnalishidagi faoliyatiga alohida eʼtibor qaratildi. Xususan, uning chet el yoshlar parlamentlari va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarini kengaytirish, Yoshlar parlamenti aʼzolarining xalqaro miqyosdagi parlamentlararo forumlar hamda nufuzli anjumanlardagi ishtiroki, tashabbuslari va tajriba almashuvi masalalariga urgʻu berildi.

“Xalq soʻzi”.

## FUQAROLAR MUROJAATLARI KOʻRIB CHIQILDI

Keyingi paytlarda fuqarolarning turli idoralarga oʻz haq- huquqlarini talab qilib yoʻllayotgan murojaatlari soni ortmoqda. Bu,bir tomondan, yurtdoshlarimiz huquqiy savodxonligining oshayotganidan darak bersa,ikkinchi tomondan,joylardagi ayrim masʼul rahbarlarning oʻz vazifalariga panja orqasidan qarayotganini koʻrsatadi.

## Oʻrganish

Respublikamizning turli hududlaridan Oliy Majlis Senatiga ana shunday murojaatlar oqimi

toʻxtamayapti. Kecha Senat qabulxonasida Agrar, suv xoʻjaligi masalalari va ekologiya qoʻmitasi

raisi Anvar Toʻychiyev fuqarolarning murojaatlarini koʻrib chiqdi.

Murojaatlardan uy-joy, ishga joylashish, ayrim huquq-tartibot organlari faoliyatidan norozilik, yer ajratish va moddiy yordamga doir masalalar aholini qiynayotgani maʼlum boʻldi.

Jumladan, Fargʻona viloyatidan P. Paul uy-joy bilan bogʻliq muammosini, Namangan viloyatining

Pop tumanida istiqomat qiluvchi 6 nafar fuqaro Olmaliq kon-metallurgiya kombinatiga ishga joylashish istaklarini bildirdi.

Yoki Toshkent shahrining Chilonzor tumanida yashovchi V. Yermetova va I. Medvedeva ichki ishlar organlari xodimlarining xatti-harakatlaridan noroziliklarini bayon etdi.

Parkent tumanida istiqomat qiluvchi D. Eshmatov esa yerga oid

nizo yuzasidan, Buxoro viloyatining Peshku tumanidan kelgan Z. Pulatov moddiy yordam olish masalasida murojaat qilishdi.

Senator tomonidan barcha murojaatlar diqqat bilan eshitildi, tegishli tashkilot va idoralarga koʻtarilgan masalalarga yechim topish boʻyicha aniq topshiriqlar berildi.

“Xalq soʻzi”.

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT)ga aʼzo davlatlar Bosh assambleyasi yigʻilishining 66-sessiyasida Oʻzbekiston Respublikasi delegatsiyasi ham ishtirok etdi.



## Muammo va yechim

BMT Oziq-ovqat

va qishloq xo'jaligi

tashkiloti (FAO)ning kuzatishlaridan ma'lum bo'lishicha, jahonda go'sht narxining oshishi global miqyosda kuzatilmog'da. Buning sababi aniq: aholi ko'paymog'da, yirik import qiluvchi davlatlarda go'shtga bo'lgan ichki talab oshib boryapti. Chorvachilikka ilmiy-innovatsion yondashilayotgan bo'lsa-da, chorva ozuqasi ta'minoti, parvarishlash va transport xarajatlarining ortishi narxga salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmayapti. Birgina tovuq go'shti misolida aytganda, uning narxi oxirgi bir yil ichida qo'shni Qozog'istonda 4,7 foiz, Rossiyada 9,7 foiz oshgan.

Yurtimizda ham keyingi paytda go'sht narxining qimmatlab borayotgani aholining haqli e'tirozlariga sabab bo'lyapti. Negaki, achchiq bo'lsa-da, aytish kerak, go'sht bahosi aholi daromadiga nisbatan olganda birmuncha baland.

## Yangi mexanizm – barqaror narx

Shu yil 16-iyun kuni bo'lgan o'tgan videoselektor yig'ilishida davlatimiz rahbari go'sht narxi masalasiga alohida to'xtalar ekan, mutasaddilar oldiga go'sht, sut, parranda go'shti va tuxum narxining keskin oshib ketmasligi, yangi mexanizm asosida narx-navo barqarorligini ta'minlash bo'yicha qat'iy vazifa qo'ydi. Shubhasi, bu yurtdoshlarimizning ayni dildagi gap bo'ldi.

Amaliyotga joriy qilinayotgan yangi mexanizmga ko'ra, endilikda korxonalarga QQSning yarmi bir kunga ham kechiktirilmasdan keshbek sifatida qaytariladi. Bu esa ular "soya"dan chiqib ishlashi, go'sht, sut, parranda go'shti, tuxum singari kundalik oziq-ovqat mahsulotlari narxi oshib ketmasligida rag'batlantiruvchi omil bo'ladi, albatta.

Xo'sh, xalq manfaati, aholi xarid qobiliyatini yaxshilash yo'lida ko'rilayotgan bunday hayotiy chora-tadbirlar joylarda qanday kutib olindi? Buning samaralari amalda sezilyaptimi?

– Prezident topshirig'i o'sha kunioyq bizga yetkazilgani, – deydi Xorazm viloyati veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i Sherzod Abilov. – Viloyatimiz hokimi hamda qo'mitamiz raisi yig'ilish o'tkazib, chorvador tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash orqali go'sht narxi oshib ketishining oldini olishga qaratilgan yangi mexanizm mazmun-mohiyatini tushuntirdi. Shu asosda kundalik ish rejamizni yanada takomillashtirdik. O'sha kuni keshbek berilishini boshqarmaning telegram kanalida yozgandik, birpasda 650 nafardan ziyod chorvadoru parrandaboqarlar "zo'r-ku", deya munosabat bildiribdi. Hatto ayrimlar "Nahotki, rostdanmi?" deya izoh qoldirgan.

Albatta, mo'l-ko'pchilikka erishmoq, dasturxonimiz to'kinligi joylardagi mutaxassislarining shijoatiga bog'liq. Negaki, o'tgan yil viloyatimizda 191 ming tonna go'sht ishlab chiqarilgan, joriy yil yakuniga borib bu raqam 207 ming tonnadan oshadi. Bunda parranda go'shtining salmog'i 30 ming tonnani, baliq 35 ming tonnani tashkil etadi. Agar kelgusida har bir tumanda 10 tadan yirik chorvachilik, bo'rdoqchilik fermalarini yo'lga qo'ya olsak, tadbirkorlarimiz parrandachilikka jiddiy e'tibor qaratishsa, baliqchilik yo'nalishidagi loyihalarnimiz natija bersa, go'sht qimmatlashuvi bilan bog'liq muammo Xorazmni butkul tark etadi. Bugun ana shu niyat bilan Prezidentimizning da'vatkor so'zlaridan ruhlanib, halovatdan kechganmiz.

## Chorvadorning dardi nimada?

Endi chorvachilik mahsulotlarining o'zagi sanalgan go'sht va uning narxi, ishlab chiqarish xarajatlari, bu ne'matni ko'paytirishga to'siq bo'layotgan holatlarga e'tibor qaratsak. Avvalo, mana bu raqamlarni bir tahlil qilaylik.

To'g'ri, keyingi yillarda Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan chorvachilik sohasiga o'ld qator Farmon va qarorlar e'lon qilindi, qoramollar bosh sonini ko'paytirish, naslini yaxshilashga, parrandachilik, baliqchilik va boshqa tarmoqlarni izchillik bilan rivojlantirishga jiddiy kirishildi ham. Bu borada xorijiy davlatlar bilan hamkorlik yangi bosqichga ko'tarilmog'da. Masalan, Jahon banki, xalqaro moliyaviy tashkilotlar ko'magida chorvachilik sohasini qo'llab-quvvatlash uchun xalqaro kredit liniyalari ochildi. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi bu borada asosiy ijrochi vazifasini bajarmoqda va yaqinda Yaponiya davlati bilan 152 mln. dollarlik yangi loyiha boshlab yuborildi.

Naschilik borasida yangiliklar ko'p, qo'mitaga qarashli naschilik markazi chuqur muztlatilgan va zamonaviy tarzda qadoqlangan zotdor buqa urug'larini respublikamiz bo'yicha uzluksiz yetkazib bermoqda. Sohaga ilmiy asoslangan innovatsiyalarni joriy etish borasida Janubiy Koreya mutaxassislari bilan hamkorlik natijalari ham ko'zga tashlanmog'da. Eng muhimi, Mo'g'uliston davlati bilan 2025 – 2027-yillarga mo'ljallangan harakatlar dasturining imzolanishi, yuz ming boshdan ortiq mayda shoxli hayvonlaru yaylov ekinlari urug'larini import qilishga kelishilgani e'tiborga molik. Bu sa'y-harakatlar joriy yil yakuniga qadar jami go'sht ishlab chiqarish hajmini o'tgan yildagi 2,9 mln. tonna emas, balki 3,1 mln. tonnadan oshirish imkonini yaratadi.

– Respublikamizning janubiy viloyatlarida go'sht ko'p iste'mol qilinsada, bu mahsulotning asosiy savdo o'chog'i poytaxt bozorlaridir, – deydi poytaxtning "Chorsu" bozorida go'sht biznesi bilan shug'ullanayotgan tadbirkor Lazizbek Hakimov. – Kuzatishimcha, kuniga "Chorsu"

yechilmay muallaq qolmog'da. Axir mol tirik jon, uning ko'payishi, sog'lom o'sishi doimiy oziqlantirishga, ilmiy asosda naschilikni yo'lga qo'yishga bog'liq. Sun'iy urug'lantirish kerak, ammo bu borada ham ozuqa yetishmasa, soxtalik ro'y beradi.

– Hovlim 21 sotix, yarmida uy-joyim, qolgan qismida molxonam bor, – deydi O'zbekiston tumanida yashovchi chorvador Nizomjon Abdullayev. – Hid chiqmasin, deya devorlarni baland ko'targanmiz. 20 bosh sigirni buzog'i bilan boqyapman. Fermerlar "ilik uzildi" payti, ya'ni fevralning oxirlarida pulga muhtoj bo'ladi, so'rab kelishadi, oldindan pul beraman xashak, beda pichani uchun. Kuchli ozuqalarni qo'qonlik tadbirkor yigitlar "Aka, pulni keyinroq, molingizni sotganda bersangiz ham mayli", deb tashlab ketishadi. Chorvadan chiqqan go'ng ham pul, bu mablag' ham oziqlantirishga sarflanadi. Shu sababli, ozuqa ta'minoti

# GO'SHT ARZON BO'LADI, AMMO...

tomorqasiga beda ektirmay qo'yishdi.

Lazizbek Hakimov shu mamlakat fuqarosi, jonkuyar inson sifatida Konimexning Boymurod degan joyida to'rt ming bosh qo'yni ko'paytirishga kirishganini ham ta'kidladi.

– Chorvadorning dardiyu muammosi nimada, hammasini bilaman, – deydi Lazizbek. – Shu yil boshida Mo'g'ulistonga bordim, holatni o'rgandim, naslli qo'ylardan ham olib keldim. Aslida, bu davlat rahbarining tashabbusi edi va bugun Konimex ikkinchi Mo'g'ulistonga aylanish arafasida, ammo o'shanda har bosh qo'yni importi 200 – 250 dollardan tushgan, ayrimlar buni ancha qimmat, degandi. Bugun-chi? Bozorda zotdor molu qo'yning narxi cho'ntakni "kuydiradi".

## Hajm ham oshdi, tannarx ham

Ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi besh yilda yurtimizda chorvachilik sohasida olib borilgan islohotlar natijasida mulchilikning turli shakliga tegishli fermalarda qoramollar bosh soni ikki barobar, ishlab chiqarilayotgan chorvachilik mahsulotlari hajmi esa uch barobar oshgan. Shu yil boshiga kelib yirik shoxli qoramollar soni 14,3 mln. boshdan ko'paygan. Naschilik korxonalari soni 400 tadan 1900 taga yetkazilgan bo'lsa, zoti yaxshilangan qoramollar ulushi 30 – 35 foizdan 70 – 75 foizga ko'tarilgan. Ijtimoiy tarmoqlarda bu masalada turli fikrlar, takliflar bayon etilmog'da.

– Agar dunyo mamlakatlaridagi go'sht narxiga razm olsak, bir kilo go'sht bahosi Shvetsiyada 46,2 dollar, Islandiyada – 38,86, Janubiy Koreyada – 28, Belarusda – 6 – 8, Qozog'istonda – 7 – 11 va Tojikistonda 8 – 10 dollar, – deydi taniqli olim, chorvachilikda oziqlantirish masalalarini bo'yicha xalqaro ekspert Dilshod Yo'ldoshev. – Ko'rib turganingizdek, raqamlar orasidagi farq juda katta, bu o'z-o'zidan aholi daromadining har xil ekanini bilan ham izohlanadi. Qayerda go'sht qimmat ekan, o'sha joyda aholi daromadi besh – o'n karra yuqori, narx bilan bog'liq o'zgaruvchanlik ham kuzatilmaydi.

Aslida go'sht narxini boshqa joylardagi narxlar bilan emas, o'sha mamlakatdagi aholi daromadi bilan solishtirish kerak. Shvetsiyada odamlar 1 kg. mol go'shti uchun 46 dollar to'laydi, lekin bu ularning oylik daromadining atigi 1 foiz. O'zbekistonda esa o'rtaacha to'rt kishidan iborat oila bir haftada 1 kg. go'sht iste'mol qilsa, bu – 3–4 million so'mlik oylik maoshning taxminan 10 – 13 foiz qismini go'shtga sarflaydi, deganidir. Shu tariqa "arzon" degan gap tilimizga chiqmay "bo'g'iladi".

O'z-o'zidan ayonki, aholi daromadini birdaniga Shvetsiya yo Janubiy Koreya darajasiga chiqarib bo'lmaydi, bu imkonsiz. Shunday ekan, go'sht narxini aholi cho'ntagi ko'taradigan darajaga tushirish, juda bo'lmaganda mo'tadil bo'lishiga erishmoq zarur.

## Eng katta muammo – ozuqa

Olimlaru mutaxassislar e'tirof etganidek, asosiy masala ozuqa ta'minotining pastligida, chorvaga yem-xashak yetishtiradigan yerlar kam, borlarining ham unumdorligi yuqori emas. Va yana kimdadir yer boru mol yo'q, boshqalarda mol bo'lsa, yer yo'q. Bu masala tumanlarda o'rganilgan, hammasi kunday ravshan, ammo muammo

menda yaxshi, ammo qo'shnilarim ozuqa qimmat, yer yo'q, deya mol boqmay qo'yd.

Fikrimizcha, bugun bo'rdoqchilik asosida go'sht yetishtirishga, ilmiy asoslarda zotdor chorvachilik bilan shug'ullanish masalasiga tadbirkorlaru amaldorlar ham jiddiy e'tibor berishi kerak. Toki, bu muammo kambag'allikni qisqartirish borasidagi davlat siyosatining ildiziga bolta urmasin. Axir, bozorning arzon bo'lishi barchaneng ro'zg'origa baraka kiritadi-da.

– Tumanimizdagi "Siyob Shavkat Orzu" fermer xo'jaligining 3340 bosh zotdor qoramoli, 3 ta parrandachilik fabrikasi bor. Hazilakam gap emas bu. O'zingiz o'ylang, 3 340 bosh zotdor qoramoli boqish tugul, saqlashning o'zi mushkul. Fermer o'tgan yil iste'molchilarga 11,5 ming tonna sut, 24 100 tonna go'sht yetkazib berdi. O'tisaga rahmat! Shuncha chorvani qanday eplayapti, bilmadimu, ammo fermer ozuqa uchun ajratilgan 620 gektarning har qarichidan unumli foydalanadi. Qani endi mana shunday chorvadorlaru ishlab chiqaruvchilar har bir tumanda kamida o'n nafardan bo'lsa, – deydi Toyloq tumani veterinariya



**Фикримизча, бугун бўрдоқчилик асосида гўшт етиштиришга, илмий асосларда зотдор чорвачилик билан шуғулланиш масаласига тadbirkorlarу амалдорлар ҳам жиддий эътибор бериши керак. Ахир, бозорнинг арзон бўлиши барчаннинг рўзгориға баракa**

va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi boshlig'i Rustam Haydarov. – Afsuski, bu niyatlarni o'zulgicha qolmog'da.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Qoraqalpog'istonda 4 ta tuman chorvachilik tumaniga aylantirildi va mamlakatimizda bu sohada minglab loyihalar amalga oshirilmog'da. Nurobod, Ohangaron, Qo'shrabot singari tumanlar ham chorvachilik hududlariga aylantirilgan, ammo o'sha manzillarda chorvachilik bilan bog'liq katta o'zgarishlar ro'y berdimi? Ushbu chorvador tumanlarning respublikamizda yalpi go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlaridagi ulushi qoniqarlami? Afsuski, yo'q. Nega shunday deng, "Kuchli ozuqalar qimmat, elektr energiyasi va yonilg'i-moylash materiallari narxlari keskin oshgan, mol boqish, go'sht ishlab chiqarish qiyinlashib ketyapti", deydi chorvadorlar.

Ishonchli manbalarga ko'ra, respublikamizda kuchli ozuqaga bo'lgan talab yuqoriligi, ozuqa yetishtirish uchun yer maydonlarining yetishmasligi tufayli chorva mollaringing ozuqa bilan ta'minlanish darajasi bor-yo'gi 35 – 40 foizni tashkil etmog'da. Mana, sizga eng katta qusur. Qolaversa, keyingi to'qqiz oy ichida eng kerakli ozuqa sanalgan shrot 3 ming so'mdan 7 ming so'mga, shulxa 2 800 so'mdan 4 ming so'mga, omixta yem 2 900 so'mdan 3 700 so'mga, bug'doy 2 200 so'mdan 3 000 – 3500 so'mga, makkajo'xori silosi 500 so'mdan 900 – 1000 so'mga, presslangan somon 15 ming so'mdan 25 ming so'mga, beda bog'lami esa 25 ming so'mdan 45 ming so'mga oshgan. Bu narx viloyatlar bo'yicha turlicha, ammo ozuqalarga bo'lgan talab ham, narx ham oshayotgani aniq.

## Ulovidan tushovi qimmat

Go'sht deganda, ko'pchilik faqat mol va qo'y go'shtini tushunadi. Parrandayu quyon, baliq mahsulotlari ham inson salomatligi uchun juda-juda kerak. Bu tarmoqlar ham go'shtga bo'lgan umumiy talabga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsata oladi. Ammo bu tarmoqlardagi muammolar ham ozuqa bilan bog'liq, natijalar ham maqtaidigan darajada emas. "Ulovidan tushovi qimmat" deganidek, odamlarning hovlisidagi tovuqlar ham kamayib ketyapti.

– Yodingizda bo'lsa, bundan besh-olti yil ilgari kambag'allikni kamaytirish niyatida joylarda odamlarga parranda tarqatildi, qoramol berildi, endi bu oila nochorlikdan xalos bo'ladi, deyildi. Qani, o'sha xayrli ishlar natijasi? Ozuqa yetishtirish, uni topishni bilmagan, chorvaga mehri uyg'onmagan nochor oila boshlig'i ozuqasiz qantarilgan jonivorni so'ldiyu qozonga

tashladi. Bir emas, o'n emas, yuz minglab holatda shunday bo'ldi. Bugun barchasi oshkor bo'ldi, dard yuzaga chiqdi, istimasi oshkor qildi, – deydi Qarshi tumanlik fermer Arziqul Tog'ayev. – Buyog'ini so'rasangiz, bizda ham ozuqa muammo. O'n yildirki, chorva boqay, menga o'z xo'jaligimdagi paykalda beda, makka ekish uchun ruxsat beringlar, deya idorama-idora yuribman. Natija yo'q hozircha.

– Go'shtga bo'lgan talabni baliq mahsulotlari, quyon go'shti yetishtirish orqali kamaytirsa bo'ladimi? Albatta. Menimcha, baliq iste'moli va uning foydasi haqidagi tibbiy targ'ibotni yanada kuchaytirish kerak, – deydi taniqli tibbiyot olimi, pediatr, xususiy klinika asoschisi Shavqiddin Jo'raqulov. – Bu mahsulot tarkibida inson organizmi uchun, ayniqsa, bosh miya uchun eng zarur bo'lgan elementlar ko'p. Bog'chalarda, maktablarda baliq mahsulotlari iste'molini tashkil eta olsak, aholining salomatligi bugungiga nisbatan ikki-uch karra oshadi, muhimi, bolalar immuniteti yuqori bo'ladi. Baliqdan tayyorlangan ne'matlarga mehr qo'yg'an bolalar orasidan zukko odamlar, daholar yetishib chiqishi ham ilm-fanda o'z isbotini topgan. Bundan tashqari, baliq

go'shti yurak-qon tomir kasalliklarida, qonda xolesterin darajasi ko'tarilganda, kamqonlik, behollik va jismoniy zo'riqishda, nevroz, teri kasalliklari, podagra va revmatizm, ko'rish qobiliyati sustlashganda kuni foydadir. Bolalar baliqdan tayyorlangan taomlarni iste'mol qilishi natijasida raxit, soch to'kilishi, bo'qoq dardlaridan forig' bo'ladi. Shu bois ham bugungi kunda dunyoning ko'plab davlatlarida baliq mahsulotlariga nafaqat oziq-ovqat, balki shifobaxsh mahsulot sifatida ham qaraladi va aholining yillik baliq iste'moli o'rtaacha 18 – 20 kilogrammi tashkil etadi. Ammo bizda bu ko'rsatkich juda past, kishi boshiga yiliga o'rtaacha 6 kilogrammga bo'g'ri kelmog'da, xolos.

Parranda biznesi orqali iqtisodini o'nglab olgan tadbirkor Umid Bozorboyevning so'zlariga qaraganda, qishloqda yashasangu hovlingda besh – o'nta tovug'ing bo'lmasa uyat. Ozuqa qimmat mahali bu oson emas, ammo o'rganib qolganmizda. Qolaversa, uyga mehmon kelib qolsayu uyda go'sht bo'lmasa, bitta tovuqni so'yasiz, dasturxon obod. Bu tadbirkor bundan o'n yillar avval samarqandlik tadbirkorlar bilan hamkorlikka kirishib, broyler jo'jalar savdosi bilan shug'ullangan. Ming boshdan ortiq bir

Mana, go'sht bahosi atrofidagi muammolaru takliflar. Bundan aslo soha rivojiga mas'ul idoralar ishlamayapti, vaziyatni o'nglashga kirishmayapti, degan xulosa chiqmasligi kerak. Aksincha, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi tizimida o'zgarishlar katta. Deputatlaru joylardagi amaldorlar ham aholining moli ko'paysin, moddiy ahvoli o'nglasin, deya jonsarak. Nazarimizda, bu muammo yechimida ham xuddi Xitoy va shunga o'xshash taraqqiyot sari dadil odimlayotgan mamlakatlardagi kabi biznes ahlining, tavakkal qilishdan cho'chimaydigan yuragi uyg'oq kishilarning g'ayratu shijoati zarur.

Bir gal "Korzinka" supermarketlar tarmog'i asoschisi muxbirning "Do'konlaringiz viloyatu tumanlarda ham paydo bo'lyapti, bunga qanday erishyapsiz?" degan savoliga "Tomoshabin bo'lishni yoqtirmayman, bozorda talab bormi, olg'a intilaveramiz", degandi. Bugun go'shtga ehtiyojimiz katta, chorvaga mehri tushgan aholining esa ozuqaga. Nega bu sohada o'zgarishlar bo'lmasligi, qo'li uzun tadbirkorlarimiz muammo yechimiga kirishmasligi kerak? Yo bu bo'yada ham xitoylik "biznesmen"larga yukinamizmi?..

Sizda qanday fikr bor, aziz mushtariy? Bu haqda yozing, befarq bo'lmang. Maqsad bitta – chorva boqish sifatiyu ko'laminu yangi bosqichga ko'tarish, shu tariqa go'sht narxini arzon qilishdir.

**Abdunabi ALIQULOV**  
("Xalq so'zi").

kunlik broyler jo'jalar birpasda sotilib ketardi. O'shanda Umidjon bu biznesga qishloqda ko'pchilikni jalb etgan, foydasi aniq edi, mittigina jo'ja bir oydayoq ikki yarim kilo tosh bosadigan tovuqqa aylanardi. Oradan vaqt o'tib ozuqa narxi ko'tarilgach, xaridor yo'qoldi.

## Import masalaga yechim bo'lolmaydi

– Bugun ayrim tadbirkorlar tirik mol emas, asosan, go'sht import qilishga astoydil intilmog'da. Bu muammoning yechimi emas. O'zimizda chorva bosh sonini ko'paytirish, zotini yaxshilashni maqsadga aylantirishimiz kerak, – deydi Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot institutining Ohangaron bo'limi rahbari, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor Nuriddin Ro'ziboyev. – Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ikki-uch yildirki, chetdan zotdor qo'ylar, echkilar va boshqa jonivorlarni olib kirishga jiddiy kirishildi. Zotni yaxshilang, besh – o'nta jaydari mol boqquncha, bitta bo'lsayam naslisidan parvarishlang, ana shunda sohada sut ham, go'sht ishlab chiqarish ham ko'payadi, degan takliflar yuqori minbarlarda aytilyapti. Bu fikrni aholi o'rtasida ham targ'ib etyapmiz. Ayni chog'da esa institutga qarashli 350 boshdan ortiq go'shtdor-serjun zotdor qo'ylar Ohangaron yaylovlarida boqilyapti. Maqsad go'sht-dor, mahalliy sharoitga moslashgan yangi qo'y zotini yaratishdan iborat. Bu boradagi ilmiy ishlarimiz ham hademay o'z natijasini namoyon etadi, biroq baribir achchiq bo'lsa-da aytish kerak, aholini chorvachilik bilan keng shug'ullanishga, jonivorlar bosh sonini ko'paytirishga rag'batlantirmasdan turib kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi.

Endi mana bu taklifga e'tibor bering-a. – G'alla o'rimg-yig'imida ishtirok etib ko'rdimki, hosildorlik yuqori, gektardan 70 sentnargacha don chiqiyapti. Ayrim fermerlar 60 tonnadan ortiq g'allani hovlisiga tushirib olyapti, – deydi Jomboy tumani veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi boshlig'i Botir Dushanov. – Qoyil, dedim, mehnat qilibdimi, haloli bo'lsin. Kuzatsak, odamlar don qatori somonga ham o'ch, fermerning dalasiga ko'z tikkan. Chunki hovlisida ozmi, ko'pmi chorvasi bor-da. Yem qimmat, degan odamlarga esa gidroponika usulida yem tayyorlab jonivorga beringlar, deymiz. Bir kilo don paykaling boshida 2500 so'm tursa, uni maxsus joyda o'stirib maysga aylantirangiz 6 karra ko'payadi. Maxsus uskunada yarim bog' somon, topolsangiz yarim bog' bedani bir tog'ora maysa bilan aralashtirib yanching, buqa tugul sigiru buzoqni ham semirtirib yuboradigan ozuqaga aylanadi. E'tibor beryapsizmi, bir kilo bug'doy qariyb olti karra ko'paydi, somon ham yem tarkibiga kirdi. Tannarxni aytimg, bir kilo to'yimli yem – besh yuz so'm. Agar buni ommaviy sur'atda tashkil eta olsak edi...

Botir Dushanovning ta'kidlashicha, bundan 15 yillar ilgari har bir tumanda respublika chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari uyushmasining o'nlab yem sotish shoxobchalari uzluksiz ishlar, aholi bu shoxobchalar orqali chorva mollariyu parrandasiga kerakli bo'lgan kuchli ozuqalarni bozordagidan ancha arzon narxda sotib olardi va bu, o'z navbatida, odamlarni chorvani ko'paytirishga rag'batlantirardi. Ushbu tamoyilni yana qo'llasak bo'lmaydimi?

– Aytaylik, respublikamizda chorva ozuqasi ta'minoti bilan shug'ullanadigan alohida idora tashkil etilsayu uning zimmasiga gidroponika usulida yem tayyorlash, aholiga bu mahsulotni yetkazib berish, kerak bo'lsa, chorvaning ilmiyu amaliyotidan saboq ulashish vazifasi yuklatilsa, – deydi Botir Dushanov. – Agar bu idora o'zini o'zi boqadigan tashkilotga aylansa, har bir tumanda 20 – 30 tadan shoxobchasi ishlab tursa, natija yaqqol ko'rinadi. Ustiga-ustak, yuz minglab qishloq yoshlari yangi ish o'rniaga ega bo'ladi. Shoxobcha tomonidan tayyorlanib, aholi yo tadbirkorning eshigiga qadar yetkazib beriladigan yemning har kilosi (gidroponika xizmati bilan) 500 so'm emas, ikki karra oshib ming so'mga borganida ham yomon bo'lmaydi. Bunday qulaylikni, tashabbusni hovlisida qoramolu qo'y-echki, parranda boqayotgan odam qarsak chaliib kutib oladi. Bu taklifdan maqsad, arzonchilik bo'lsin deyman, go'sht qimmatlasa, kambag'allik balosi bizdan nari ketmay qoladi, ana shu meni cho'chitadi...

## ANDIJON

## TOMONLARDA

Marhamat tumanidagi tut urug'chiligi va ko'chatchiligi xitioslashtirilgan "Ipak ko'chat klaster" fermer xo'jaligida 16 davlatdan keltirilgan 240 ta noyob tut navlari kolleksiyasi mavjud. Bu xo'jalikda yiliga respublikamiz hududlariga 5-6 million tup ko'chat yetkazib berilishi yo'lga qo'yilgani ham e'tiborga molik.

## Yangi navlar – yangi imkoniyatlar

– O'zbekiston "kumush tola" yetishtirish bo'yicha dunyoda Xitoy va Hindistondan keyin uchinchi o'rinda turadi. Oqsilga boy tut navlarini ko'paytirishda esa yetakchilik qiladi, – deydi xo'jalik rahbari Abdulfatto Musulmonqulov. – Xo'jaligimizda 2022-yilda tashkil etilgan "In-vitro" laboratoriyasida o'ndan ziyod tut navlari yaratildi, bir yilda shu laboratoriyadan 500 ming tup ko'chat tarqatildi.

Ahamiyatlisi, ayni paytda nafaqat pillachilikda, balki chorvachilikda ham muhim ozuqa o'rini bosuvchi yangi tut navi ustida ishlanmog'da. Xo'sh, uning afzallik jihatlarini nimada?

– Chorva mollari uchun makkada 0,24 foiz ozuqa birligi bo'lsa, biz yaratayotgan tut bargida bu ko'rsatkich 0,60 foizni tashkil etadi, – deydi A. Musulmonqulov. – Qolaversa, makkani bir yilda 10-marta sug'orish kerak, tutni esa atigi uch marta sug'orish kifoya. "Ipak ko'chat klaster"da erishilayotgan bu kabi yutuqlarning asosiy omili esa ilm bilan amaliyotning uyg'unligidir.

## Obod va fayzli maskan

Shahrixon tumanidagi Oq oltin mahallasida iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan sharoiti og'ir hududlarni obodonlashtirish, aholi daromadini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar samarasi yaqqol namoyon bo'lmoqda.

– Mahallamizdagi 751 ta xonadonda istiqomat qiluvchi 4 ming 100 nafarga yaqin aholi bilan yuzmay-yuz suhbatlashib, ularning bandligini ta'minlash va qo'shimcha daromadga yo'naltirish chora-tadbirlari ko'rildi, – deydi mahalla raisi Jahongir Tangriyev. – Turmush sharoitini yaxshilash, qulayliklar yaratish maqsadida ichki ko'chalarning 9 kilometr qismi asfalt qilinib, 1 600 metrluk yuz quvuri o'tkazildi. Mahalla hududiga 3 ta yangi transformator o'rnatildi, 100 dan ortiq eski simyog'ochlar temir-betonli ustunlarga almashtirildi.

Bundan tashqari, mahalla hududidagi o'tgan asrning 60-yillarida qurilgan 120 o'rinni 20-maktabgacha ta'lim tashkilotining binosi ikki qavatli qilib, 220 o'rimga mo'ljallangan holda yangidan barpo etildi. Shu bilan birga, yopilib ketgan mahalla poliklinikasi ham qaytadan qurilmog'da.

Xullas, mahalla eng namunali manzillardan biriga aylandi.

## Kasanachilikdan – eksportgacha

Qo'rg'on tepa tumanida tadbirkor Zafarbek Nuriddinov tomonidan yarimtayyor shaklda ishlab chiqarilgan bolalar o'yinchoqlari 40 ta xonadonda istiqomat qiluvchi aholiga yetkazib berilyapti. Ular mahsulotni butlab, sotuvga hozirlaydi. Tayyor bo'lgan o'yinchoqlar esa Qirg'iziston, Tojikiston va Qozog'istonga eksport qilinadi.

– Nogironligim bo'lgani uchun uydan chiqolmayman. Kasanachilik bilan shug'ullanaman, – deydi Ra'noxon O'tmonova. – Bir kunda o'rtaacha 600 – 700 ta qo'g'irchoqni yig'ishga ulguraman. Oylik daromadim 2,5-3 million so'mni tashkil etmog'da. Bu men uchun nafaqat daromad manbai, balki jamiyatga faol moslashuv vazifasini ham o'taydi.

Tumanda turli yo'nalishdagi kasanachilikni rivojlantirish orqali 250 nafar fuqaroning bandligi ta'minlandi. Yil oxiriga qadar bu ko'rsatkich teng barobarga ortishi ko'zda tutilgan.

**Saminjon HUSANOV**  
("Xalq so'zi").

“Dolzarb 90 kun:”

# Yangi Oʻzbekistonda tafakkur yangilanishlari

Har bir tong – yangi imkoniyat. Mehrli quyosh tog'lar ortidan nur sochib, yashil vodiylarga yangi hayot nafasi kirib kelar ekan, xalqimiz qalbida ezgu niyatlar uyg'onadi. Bugun bu uyg'onish faqat fasllarning almashinuvi emas, balki tafakkur yangilanishi, orzular ro'yobi sari yangi bir to'liqlarning paydo bo'lishidir. Bu uyg'onishning timsoli – Prezidentimiz tashabbusi bilan boshlangan "Dolzarb 90 kun" loyihasi bo'lib, u ijtimoiy ongni yorituvchi, davlat va jamiyat o'rtasidagi masofani qisqartiruvchi, fuqarolik mas'uliyatini oshiruvchi beqiyos harakatga aйлandi.

Butun mamlakatimiz bo'ylab o'quvchi-yoshlarning yozgi ta'til davrini mazmunli o'tkazish, vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirish maqsadida madaniy, ma'rifiy va sport tadbirlari, sayohatlar, uchrashuvlar tashkil etilmoqda. Yig'it-qizlar qiziqishlaridan kelib chiqib turli kash-hunarlariga yo'naltirilmoqda.

## Mushohada

### Ijtimoiy ong va mas'uliyat uyg'onishi

Mustaqillik xalqimizni o'z tomlirlari, tarixiy xotirasi va ma'naviy merosiga yanada qayinlashtirdi. Ushbu ne'mat tufayli o'zimizning kim ekanimizni, ruhiy va madaniy ildizlarimizni qayta kashf etdik. Qadim va shonli o'tmishdan suv ichgan xalqimiz bugungi kunda ma'naviy yuksalish, jamiyat ravnaqi va har tomonlama taraqqiyot sari dadil qadam tashlamoqda.

Biz bugun ilmga, tahlil va izlanishga tashna avlodni tarbiyalab, ertangi porloq kelajak poydevorini mustahkamlashni oldimizga bosh maqsad qilib qo'yganmiz. Bugun nafaqat yangi tarix sahifalarini yozyapmiz, balki undagi har jumlani o'z fuqarolik pozitsiyamiz, bilim va salohiyatimiz bilan sarmazmun qilishga, bezashga intilmoqdamiz. O'zbekiston hayotida muhim ijtimoiy harakat – "Dolzarb 90 kun" boshlandi. Bu harakat – zamonaviy davlat qurilishining yangicha mexanizmi, ijtimoiy ong va mas'uliyat uyg'onishining ifodasi, desak, mubolag'a emas.

Zamonlar osha yangragan jadid bobolarimizning fikrlari bugungi kun bilan uzviy bog'liq. Munavvarqori Abdurashidxonov aytganidek: "Millatni uyg'otmak uchun, avvalo, uning ongini uyg'otmak kerak". Bugun "Dolzarb 90 kun" harakati – aynan o'sha ongini uyg'otishga qaratilgan. Bu harakat orqali yoshlarimizning axloqiy immuniteti mustahkamlanmoqda, milliy o'zlik tiklanmoqda, ilg'or raqobatbardosh avlod tarbiyalanmoqda.

"Dolzarb 90 kun" harakati bevosita ong va tafakkur maydonidagi uyg'onishdir. Harakat doirasida har bir fuqaroga, xususan, yoshlarga murojaat qilinmoqda: "Sen befarq bo'lma, sen hayotimizdagi yangilanishlarda ishtirok et, sen jamiyatdagi o'zgarishlarga hissa qo'sh". Bu kishini faol hayot pozitsiyasiga undovchi, shunchaki tamshanib turish emas, balki jarayonlarga mas'uliyat bilan aralashishga chaqiruvdir.

Jadid bobolarimiz xalqni qo'loqlikdan, johillikdan olib chiqish uchun maktablar ochdi, darsliklar yozdi, gazetayu jurnallar nashr qildi. Bugungi kunda esa biz ularning orzularini zamonaviy shaklda raqamli avlod ongida uyg'otmoqdamiz. Zero, axloqiy immunitet degani faqat qadriyatlar haqida gapirish emas, balki yosh avlod qalbiga Vatan tuyg'usi, halollik, mas'uliyat va milliy g'ururni singdirishdir.

### Mafkuraviy immunitet yaratish harakati

"Dolzarb 90 kun" – tashkiliy va ma'muriy tadbirlar yig'indisi emas, mafkuraviy

masofa qisqarmoqda. O'tmishdagi "Zarbdor 30 kun"lar paxta terimi bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, bugungi "Dolzarb 90 kun" ijtimoiy ongni o'stirish, islohotlar ildizini chuqur o'rganish va amaliy natijalarga yo'naltirishni zimmasiga olgan.

Aytish joizki, Farg'ona davlat universiteti jamoasi ham ushbu tashabbusda faol ishtirok etmoqda. Ilm-fan, ta'lim, ijtimoiy sohalar bo'yicha joylardagi real vaziyat tahlil qilinish, mavjud masalalarga universitet professor-o'qituvchilari, talabalar va yosh olimlar tomonidan aniq yechimlar ishlab chiqilmoqda. Har bir fakultet, har bir kafedra endi nafaqat ta'lim maskani, balki ijtimoiy muammolarni hal etishga xizmat qiluvchi intellektual markazga aylanmoqda.

### Yoshlarning bo'sh vaqti – bizning ish vaqtimiz

"Dolzarb 90 kun" loyihasi doirasida yozgi ta'til davrida talaba va o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi va kunlik reja jadvali ishlab chiqilib, ijroga kirishildi. Buning samarasi o'laroq Farg'ona shahrida joylashgan Yoshlar, Ibrat, Navro'z, Shodiyona, Sohobqiron Temur va Soybo'ygi mahallalari "yettilligi" hamda Farg'ona shahridagi qator maktab rahbarlari bilan uchrashuv tashkil etilib, yozgi ta'til davrida o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda universitetda yaratilgan imkoniyatlardan to'liq foydalanish bo'yicha memorandum imzolandi.

Natijada yoshlarning bo'sh vaqti bizning ish vaqtimizga aylandi. Mahalla va maktablardan kelgan o'g'il-qizlarga universitet qatag'on qurbonlari muzeyi, sport-sog'lomlashtirish majmuasi, harbiy vatanparvarlik markazi, fizika va kimyo laboratoriyalari hamda mavjud to'garaklar faoliyati tanishtirildi. Shuningdek, "Odil junior" futbol maktabiga sun'iy futbol maydoni, "Ideal" va "Yangi avlod" xususiy maktablariga suzish havzasi erkin foydalanish uchun berildi.

Qolaversa, robototexnika, yosh fizik, duradgorlik, chilangarlik, arduino platformasi va elektron ijodkorlik, "Mohir qo'llar" va boshqa to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yildi.

"Yozgi sport o'yinlari", "Rektor kubogi" musobaqalari, "Talabalar ligasi", "Kibersport" tanlovlari, konsert dasturlari,

Bugun tobora chuqurlashib borayotgan globallashtiruvchi jarayonni turli fitnalar uchun yanada qulay sharoit yaratishini unutmashimiz lozim. Mana shunday o'ta tahlikali sharoitda tinchlikning qadriga yetish, istiqloq ruhi, uning bunyodkorona shukhi bilan bir qatorda shukronalik tuyg'usi va yurtga muhabbatni yurakka joylab, o'zimizda mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitet hosil qilishimiz dardkor. Shubhasiz, barcha ezgu ishlar, ulkan yangilanishlar, taraqqiyot faqat tinchlik va barqarorlik zaminida ro'yobga chiqadi. Faqat osuda va xotirjam hayotga xalqimizga bayram va shodliklarni to'laqonli baxsh eta oladi. Bizning bugungi tinch, farovon hayotimiz o'z-o'zidan yuzaga kelmagan, bu mustahkam islohotlar hamda xalq bilan davlat o'rtasidagi hamijhatlik samarasidir.

"Dolzarb 90 kun" loyihasi ham xalq bilan davlat o'rtasidagi ijtimoiy shartnoma, ongli jamiyat qurilishiga xizmat qilmoqda. Bu harakat bizdan faqat ishtirokni emas, fidoyilik, intellektual yondashuv, halollik, insonparvarlik va milliy g'ururni ham talab qiladi. Shu yo'lga FarDU jamoasi – professor-o'qituvchilar, talabalar, ilmiy tadqiqotchilar doim bir safda bo'lib, yangi O'zbekiston taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishda davom etadi. Chunki bu Vatan bizniki, uning ertasini esa bugungi jasoratli qadamlarimiz belgilaydi.

**Bahodirjon SHERMUHAMMADOV,**  
Farg'ona davlat universiteti rektori, professor.

Xalq soʻzi  
Narodnoye slovo

TANLOVIGA

san'at ko'rgazmalari, adabiyot kechalari, ijodiy uchrashuvlar, "Zakovat" intellektual o'yinlari, kino va teatrlar, kitobxonlik tanlovlari o'tkazildi.

Ko'ngilli talabalar a'zolidagi "Bunyodkor yoshlar" talabalar qurilish otryadlari faoliyat yuritmoqda. Ichki turizm yo'nalishida "Vatan bo'ylab sayohat qili" loyihasi doirasida talaba va o'quvchilarning yurtimizdagi madaniy-tarixiy joylarga sayohatlari amalga oshirib kelinmoqda.

Bu kabi tadbirlar faqatgina universitet miqyosida emas, viloyatning chekka hududlarida ham tashkil etilmoqda va bundan ko'zlangan maqsad har bir yoshga imkoniyat yaratish, yozgi ta'tilini mazmunli o'tkazishga ko'maklashishdir.

Yaqinda universitet tashabbusi bilan Rishton tumanidagi Mehnatobod mahallasida yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga qaratilgan "Dolzarb 90 kun" loyihasi doirasidagi tadbirlarga start berildi. Bunda navqiron avlodni sog'lom turmush tarziga o'rgatish maqsadida mahalla yoshlari o'rtasida sportning minifutbol, quvnoq startlar, shaxmat-shashka turlari bo'yicha "Rektor kubogi" musobaqalari o'tkazilib, g'oliblar diplom va esdalik sovg'alarga bilan taqdirlandi. Bundan tashqari, turli ijodiy kechalar, ko'ngilochar tadbirlar, uchrashuvlar, konsert dasturlari uyushtirilib, tuman yoshlarining madaniy va ma'naviy dam olishlari uchun sharoitlar yaratildi.

Bugun mazkur hududda nafaqat yoshlar, aholining barcha qatlamini qamrab olgan keng ko'lami amaliy ishlar olib borilmoqda. Universitet tomonidan aholiga tibbiy va psixologik ko'mak berish markazi tashkil etildi, kam ta'minlangan fuqarolar holidan xabar olinib, mavjud muammolari o'rganilmoqda. Ayni chog'da mazkur mahalladagi maktabgacha ta'lim muassasasi, umumiy o'rta ta'lim maktabi, oilaviy shifokor punkti, fuqarolar yig'ini binosi kabi obyektlarni qayta ta'mirlash, mahallaga toza ichimlik suvi keltirish va yo'llarni asfalt qilish bo'yicha "yo'l xaritalari" ishlab chiqildi hamda amaliy ishlar boshlanish arafasida.



## FUTBOLCHILARIMIZ FAOLIYATIDA MUHIM BOSQICH

Yoz faslining jazirama qaynoq kunlarida futbol muxlisleri e'tibori mavsumoldi transferlarga qaratilgan. Ko'pchilikka ma'lum, transfer – bu futbolchining bir jamoadan ikkinchi jamoaga o'tishi hisoblanadi. O'zlarining chaqqon harakatlari, to'puralik xususiyati va yashil maydondagi turli pozitsiyalaridan kelib chiqib futbolchilar ma'lum bir jamoaning nazariga tushib sotib olinsa, ba'zilar sobiq klubi bilan shartnomasi tugab, erkin agent sifatida boshqa jamoaga o'tib ketadi.

## Sport

Kelasi yili AQSH, Meksika va Kanada mamlakatlarida o'tkaziladigan jahon chempionatiga yo'llanma olgan O'zbekiston milliy terma jamoasiga nomzod futbolchilar ham o'z sport formasini ushlab turish va faoliyatida yangi bosqichni boshlash maqsadida turli klublarga legioner sifatida o'tmoqda. Quyida shular haqida qisqacha ma'lumot beramiz.

O'zbekiston terma jamoasi va "Rubin" (Qozon, Rossiya) himoyachisi Rustam Ashurmatov faoliyatini Eronda davom ettiradigan bo'ldi. 29 yoshli futbolchi yana bir hamyurtimiz – Jaloliddin Masharipov to'p tepayotgan Tehronning "Istiqlo" jamoasi safiga borib qo'shildi. Ma'lumotlarga ko'ra Eronning kuchli jamoalaridan biri R. Ashurmatov uchun qozonliklarga 450 ming yevro to'laydi. U o'tgan mavsum "Rubin" libosida 21 o'yinda maydonga tushib, uch bor ogohlantirilgan. Rustam bungacha mamlakatimizning "Bunyodkor" va "Navbahor", Koreya Respublikasining "Kvanju" hamda "Kanyon" kabi jamoalarida to'p surgan.

O'zbekiston milliy terma jamoasiga nomzod futbolchi Akmal Mozgovoy ilk marotaba legioner maqomida Birlashgan Arab Amirliklarida o'ynaydigan bo'ldi. 2024-yilda "Superliganing eng yaxshi futbolchisi" sovrinini qo'lga kiritgan hamyurtimiz "Baniyas" jamoasi bilan shartnoma imzoladi.

"Ilk faoliyatimda "Nasaf" jamoasida to'p surdim. Barcha orzularim shu yerdan boshlangan. Albatta, juda og'ir, ammo men faoliyatimda yangi sahifa ochishga qaror qildim. Men hali qaytaman", deya fikr bildirgan u.

"Nasaf" futbol maktabi tarbiyalanuvchisi bo'lgan A. Mozgovoy ushbu klub bilan birga uch marotaba O'zbekiston kubogi, uch marotaba Superkubokni, bir martadan superliganing oltin, kumush va bronza medallarini qo'lga kiritgan.

"Paxtakor" matbuot xizmati xabariga ko'ra jamoaning umidli futbolchisi Muhammadali O'rinboyev kuni kecha Belgiyaning "Antverpen" klubi bilan 4 yillik shartnoma imzoladi. 20 yoshli futbolchining transferi mazkur mamlakatning 5 karra chempioniga 300 ming yevroga tushgan.

M. O'rinboyev joriy mavsum "sherlar" safida 14 ta o'yinda maydonga tushib, 5 ta gol urdi va 3 ta golga assistentlik qildi. Hujumkor yarimhimoyachisi o'tgan yili bir muddat Angliyaning "Brentford" yoshlar jamoasida malaka oshirgan.

Yurtimizning ayni paytdagi kuchli futbolchilaridan bo'lgan Eldor Shomurodov Italiyaning "Roma" jamoasini tark etdi. O'zbekiston milliy terma jamoasi sardori Turkiya klubiga o'tdi. "Istanbul Bashakshexir" Eldorni 2,7 mln. yevroga sotib olish huquqi bilan 3 mln. yevroga ijaraga oldi. Futbolchimiz turk jamoasi bilan bir yilga uzatirish sharti bilan 2 yillik bitim imzolagan, uning keyingi transferining 10 foiz puli "Roma" hisobiga o'tadi.

Shuningdek, Ozarbayjonning "Sumgayit" jamoasida to'p surgan ikki futbolchimiz – Bobir Abduxolliqov va Jasur Jaloliddinov O'zbekiston superligasiga qaytib kelishdi. Bobir "Paxtakor", Jasur esa "So'g'diyona" jamoasida o'z faoliyatini davom ettiradi.

**Sunnatilla ISLOMOV**  
("Xalq so'zi").

PEKJAMA

## ZAMONAVIY AGROTEKNOLOGIYALAR SAMARASI “BMB AGRO” tajribasi va innovatsion yondashuvlar

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi yerlarining samaradorligini oshirishga, jumladan, unda suvni tejovchi zamonaviy texnologiyalarni keng qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 7-maydagi "Suv xo'jaligida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy qilish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, suv xo'jaligida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etish va sohada islohotlarni chuqurlashtirish ko'zda tutilgan. Bu ilg'or xorijiy tajribadan unumli foydalanishni, suv resurslarini imkon qadar tejaydigan texnologiyalarni tatbiq etishni talab qiladi.

Jizzax viloyatining Armasoy tumanida faoliyat yuritayotgan "BMB HOLDING" tarkibidagi "BMB AGRO" korxonasi hozirgi kunda qishloq xo'jaligi sohasida innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishi bilan e'tibor qozonmoqda. Bu yerdagi ishlar samarasi sifatida yuqori hosildorlik, mahsulot sifatining yaxshilanishi va eksport salohiyatining oshirish kuzatilmoqda.

Sho'rxok, uzoq vaqt foydalanilmagan, samarasiz yerlar ilmiy asosda qayta o'zlashtirilib, ularda paxta, g'alla, sabzavot va dukkakli ekinlar yetishtirilaypti. So'nggi yillarda bu tadbirlar o'z samarasini bera boshladi: paxtadan gektariga 30 – 35 sentner, g'alladan 80 – 90 sentnergacha, sabzavot va poliz mahsulotlaridan ham yuqori hosil olinayotir.

Agrar sohadagi bu yutuqlarga erishishda

esa suv resurslaridan unumli foydalanish, xususan, gidrogel vositasini qo'llash muhim o'rin tutmoqda.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, mazkur texnologiya O'zbekistonda ilk bor aynan "BMB AGRO" korxonasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan. Tuproqdagi namlikni uzoq muddat saqlaydigan ushbu modda suv sarfini 40 – 45 foizgacha qisqartirish imkonini beradi. Bu nafaqat tabiiy resurslarni tejaydi, balki sug'orish oraliqlarini ham ikki baravargacha uzatiradi.

Bu haqda qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) Sobir Yo'ldoshev quyidagicha izoh berdi:

– Gidrogel – bu neft qoldiqlaridan olinadigan polimer modda bo'lib, tuproqdagi namlikni ushlab turish xususiyatiga ega.



U nafaqat suvni saqlaydi, balki tuproqdagi zararli moddalarning filtrlanishiga ham yordam beradi. Namlik yuqori bo'lgan paytlarda esa uning me'yori taritibga soladi.

Gidrogelning asosiy afzalligi, ayniqsa, suv tanqisligi mavjud hududlarda undan foydalanilganda, suv sarfi keskin kamayadi. Masalan, pomidor va bulgur qalampiri kabi sabzavotlarda namlik yetishmovchiligi tufayli gullar erta to'kilib ketadi. Gidrogel ishlatilganda o'simlikda barg shakllanishi yaxshilanadi, bu esa bevosita hosildorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu modda mevalarning bir xil yetilishini, standartligini ta'minlaydi. Bu esa hosil sifati va bozorbo'pligini oshiradi. Eng muhimi, vegetatsiya davrida o'simliklar

uchun optimal suv muhitini yaratadi. Sug'orish oraliqi ikki baravarga ko'payadi, nafaqat suvni, balki resurslarni ham tejaydi. U hatto yomg'ir suvi va shudring tomchilarini ham o'zlashtirib, barg orqali o'simlikka yetkazadi. Namlikni uzoq vaqt saqlash orqali o'simliklar doimiy suv bilan ta'minlanadi.

Shuningdek, gidrogelni qo'llash hosilning 10 – 15 kun erta pishishiga, hosil olish davrining esa 20 – 25 kunga uzayishiga olib keladi. Bundan tashqari, u zamburug' kabi kasalliklarga qarshi kurashishda ham samarali vosita hisoblanadi.

Mutaxassislar va sohada faoliyat yurituvchi amaliy xodimlar o'rtasida mazkur texnologiyani kengroq joriy qilish bo'yicha

fikr almashish maqsadida muntazam ravishda seminarlar ham tashkil etilgan bo'lib, ularda gidrogel polimer moddasining natijalari tahlil qilinmoqda. Xususan, "Red Star", "Lojain" va "74/24" navli pomidorlarni yetishtirishda gidrogel qo'llanilganda poya uzunligi 29 – 37 sm., yon shoxlar soni 1 – 1,2 ta, barglar soni esa 7 – 11 tagacha oshgani kuzatilgan.

Innovatsion yondashuv faqat yetishtirish emas, balki qayta ishlash jarayonlarida ham o'z aksini topmoqda. "BMB AGRO" tarkibidagi maxsus korxona yiliga 65 ming tonna dukkakli mahsulotni qayta ishlash quvvatiga ega. Bu yerda zamonaviy uskunalar yordamida xalqaro standartlarga mos saralash, tozalash va qadoqlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Ayni paytda mahsulotlarning katta qismi Latviya, Polsha va Xitoy kabi davlatlarga eksport qilinmoqda. Joriy yil boshidan buyon 4,6 million dollarlik mahsulot eksport qilingan bo'lsa, yil yakuniga qadar mazkur ko'rsatkichni 10 million dollarga yetkazish rejalashtirilgan.

Bugungi kunda "BMB AGRO" korxonasining tajribasi qishloq xo'jaligida tabiiy resurslarni oqilona boshqarish, innovatsion yechimlarni tatbiq qilish va eksportbop mahsulot yetishtirishda namunaviy loyiha sifatida ko'rilmogda.

"Xalq so'zi".



Mamlakatimizning barcha hududidagi ixtisoslashtirilgan maktablarga qabul imtihonlari belgilangan tartib va jadval asosida tashkil qilinmoqda.

# BIR BOLAGA – YETTI MAHALLA OTA-ONA

Milliy retro kinoasarlarimizdan biri “Suyunchi” filmini ko‘rganlar Anzirat buvi obrazini darhol eslaydi: o‘tkir tili, tinib-tinchimas fe‘li, hamisha ogohligi hamda butun mahalla ahliga qalb qo‘ri bilan qayg‘urishi bois u qishloqning haqiqiy vijdoni hisoblanadi.

Darhaqiqat, qadimdan mahallalarimizdagi ma‘naviy muhit barqarorligida ana shunday kayvoni keksalarning o‘rni beqiyos bo‘lgan. Ular ko‘cha-ko‘yda mahalladoshlariga, ayniqsa, bolalarga ko‘z-quloq bo‘lib, tarbiyaning xalqona mexanizmi – ogohlik, jamoaviylik va mehr-muruvvat bilan uyg‘unlashgan yondashuvni amalda namoyon etgan.

Xo‘sh, bugun-chi? Asrlar sinovidan o‘tgan ana shu yondashuv mahallalarimizda qanchalik barqaror?

## Mulohaza

Tan olish kerak, bugungi zamon ota-onalaridan ulkan mas‘uliyat va mashaqqatli mehnat talab qilinmoqda. Kun bo‘yi ro‘zg‘or tashvishlari, turmush yugur-yugurlari, tirikchilik o‘y-xayoli bilan ovora bo‘lib yurarkanmiz, ba‘zan farzandlarimizning bosgan qadami, yurish-turishidan uzluksiz xabardor bo‘lishga ulgurmay qolamiz. Ammo bola ulg‘ayguniga qadar uning atrof-muhitdan oladigan ta‘siri ulkan kuchga ega. Aynan shunday paytlarda ota-onaning “ko‘zi, qulog‘i” bo‘lib xizmat qiladigan, farzand tarbiyasiga ko‘makdosh bo‘ladigan eng yaqin insonlar – bu devordarmiyon qo‘ni-qo‘shnilar, qolaversa, mahallaning e‘tiborli oqsoqollariyu tinib-tinchimas “Anzirat buvi”laridir.

– Mahalla-ko‘y, qo‘ni-qo‘shnichilik munosabatlari o‘zbek xalqining qadimiy turmush tarzida muhim o‘rin tutib kelgan, – deydi filologiya fanlari doktori, folklorshunos olimi Munavvara Yoqubbekova. – Bu tizim yillar davomida takomillashib, insonlar

orasida ham ijtimoiy, ham tarbiyaviy rishtalarni mustahkamlab borgan. Farzandlarimiz ulg‘ayar ekan, ayniqsa, balog‘at yoshiga yetib, ko‘cha-ko‘yda tengqurlari bilan yurgan paytlaridagi yurish-turishi, muomalasi, og‘zidan chiqayotgan gap-so‘zlari nafaqat ota-onaning, balki mahallaning mehribon buvijonlariyu nuroniy otaxonlarining ham nazoratida bo‘lishi qaysidir ma‘noda ota-onalarning ko‘nglini xotirjam qiladi. Bu jamiyatda hech qaysi bola e‘tibordan chetda qolmasligi, “bolaning begonasi bo‘lmaydi”, degan naqlga amal qilinishidan ham dalolat beradi. Aynan shu ogohlik, bolalarni voyaga yetkazishda bir-biriga ma‘naviy yelka tutish qadriyati – xalqimiz tarbiya uslubining eng kuchli poydevorlaridan biri.

Shu o‘rinda yana bir mulohaza. Yaqinda qadimiy shaharlarimizda gidlik qilayotgan yurtdoshimiz bir davrada hayajon bilan so‘zlab berdi: u boshchiligidagi ovro‘polik sayohatchilarning bir guruhi

Eski shaharning tor ko‘chalarida sayr qilayotganda, har uchragan bola-baqrami, yosh-yalangmi – barchasi o‘zidan kattalarga qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib tavoze bilan salom berganini ko‘rib, sayyohlar bu holatni “madaniy hodisa” sifatida qabul qilgan ekan. Ular hayrat bilan: “Sizlarda yosh bolalar ham salom berishni biladi, bu qanday zo‘r tarbiya!” deyishibdi. Haqiqatan, bu faxrlansak arzigulik qadriyatlarimizdan biri. Birgina salomlashish odobi – biz uchun oddiy odat emas, balki insoniylik, hurmat va tarbiyaning yetuk belgisi hamdir.

Biroq bugun hayotimizda ushbu manzaraga zid holatlar ham ko‘zga tashlanmoqda. Ba‘zan tevarak-atrofimizda kattalarga hurmat ko‘rsatmaydigan, jamoat joylarida o‘zini haddan tashqari “erkin” tutadigan, boshqalarning osoyishtaligiga bepisand munosabatda bo‘ladigan o‘spirin o‘g‘il-qizlar uchrab turadi. Ularni tartibga chaqirib qo‘yishga jur‘at etuvchi nuroniylar esa tobora kamayib borayotgandek. Ilgari mahallaning har burchida yaxshi bilan yomonni ajrata oladigan, kattayu kichikka bir og‘iz gapi bilan yo‘l ko‘rsatadigan, mavzu avvalida tilga olingan “Anzirat buvi”lar endi har yerda ham uchrayvermaydi.

Yanada achinarlisi, bunday holatlarni ko‘rib ko‘rmaganga olayotgan “kattalar” soni ham kam emas. “Tanimasam, gapirib nima qildim”, qabiligidagi yondashuvning ortishi bilan umumtarbiya zanjiri uzilmaydi, deb hech kim kafolat bermaydi. Bunday vaqtlarda

beixtiyor xalqimiz topib aytgan maqol yodga tushadi: “Katta arava qayerdan yursa, kichigi ham shundan yo‘rg‘alaydi”. Ya‘ni kattalar qanday yo‘l tutsa, keyingi avlod ham shuni tanlaydi. Ha, tarbiya faqatgina ta‘limu tanbeh berishdan emas, keksalarning ibratli hayotidagi andozalar orqali ham shakllanadi.

Ayni vaqtda “quloqsiz” sanaladigan bunday bolalar ko‘p hollarda yolg‘iz, beqaror, nazoratsiz muhitda voyaga yetayotgani sir emas. Ota-onasi tirikchilik g‘amida yurgan bir paytda aynan mahalla tizimi – jamiyatning quruq hisobotdan iborat bo‘lgan nazariy emas, balki hayotiy, qolaversa, amaliy qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmiga aylanishi zarur.

Bugungi kunda Prezidentimiz tashabbusi bilan mahalla instituti qayta tashkil etilib, mahallabay ishlash tizimi yo‘lga qo‘yildi. Profilaktika inspektori, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, hokim yordamchisi – bularning barchasi mahalla farovonligi uchun, shuningdek, yosh avlod tarbiyasi uchun mas‘ul. Ammo shunchaki tizim bo‘lishning o‘zi kam. Undan samarali foydalanishda o‘z hissasini qo‘shish har bir insonning fuqarolik burchi hisoblanadi.

Hayotiy bir misol bilan fikrimizni davom ettiramiz. Poytaxtimizdagi mahallalarning birida ota-onasidan erta ajralib, buvisining qo‘lida ulg‘ayayotgan 14-15 yoshlardagi o‘smir yigitcha kun bo‘yi ko‘chada yurib, maktabdagi darslardan qochishga odatlanib qoladi. O‘z vaqtda mahalla faollari, maktab

ma‘muriyati va qo‘shnilar birlashib, shu bolaning taqdiriga e‘tibor qaratishadi. Bolaga kitoblar olib beriladi, futbol to‘garagiga jalb qilinadi, qisqacha aytganda, unga mehr ko‘rsatiladi. Bugun uning baholari yaxshilanishi bilan birga sport jamoasining sardori etib saylandi. Bir bola taqdiridagi bu kabi ijobiy o‘zgarishlarni o‘nlab keltirish mumkin. Bu hozirgi mahalla institutidan kutilayotgan ezgu ishlarning jonli dalili bo‘la oladi.

Shunga qaramay, afsuski, jamoaviy hamjihatlikni qabul qilmaydigan, qo‘shnichilik munosabatlarini “ortiqcha” sanaydigan oilalar ham bor. Farzandi xulqidagi o‘zgarishlarni tuzatmoqchi bo‘lganlarga qarata “Bu mening bolam, o‘zim bilaman”, degan gapdan nariga o‘tmaydigan ayrim ota-onalarning bu yakkahol tutumi na o‘zlariga, na farzandlariga, na-da jamiyatga foyda keltiradi. Yor-birodarlaridan chekkalangan har kimki tarbiyaviy ko‘mak, eng asosiysi, o‘z farzandining sog‘lom ijtimoiy muhitda ulg‘ayish imkonidan bebahra qoladi.

Demak, “Bir bolaga – yetti mahalla ota-ona”, degan hikmat bugun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Farzand tarbiyasi faqat oilaning emas, balki butun jamiyat, mahalla hamda ma‘naviy uyg‘oq har bir insonning zimmasidagi mas‘uliyat ekanini unutmashimizdadir.

Nargiza YUNUSOVA  
("Xalq so‘zi").

## NAMANGANDA NIMA GAPLAR?

### Na‘matak plantatsiyalari kengaymoqda

Pop tumanida oziq-ovqat va farmatsevtika sanoati uchun muhim xomashyo hisoblangan na‘matak mevasini yetishtirish keng yo‘lga qo‘yildi.



Suvsizlikka chidamli va ko‘p mehnat talab qilmaydigan o‘simlik, asosan, hududning kam suv hamda samaradorligi past bo‘lgan, dehqonlar uchun uzoq muddatga ijaraga berilgan ming gektardan ortiq ekinzorlarda parvarishlanayapti.

– O‘tgan mavsumda bir gektarlik na‘matakzordan 100 million so‘mdan ko‘proq daromad oldim, – deydi ijarachi bog‘bon Ikromjon Akbaraliyev. – Bu o‘simlik ko‘chatlari tabiiy ravishda ko‘payishi hisobiga joriy yil ushbu ko‘rsatkich yanada ortishi kutilayotir.

Tumandagi eksportchi klaster tomonidan 206 gektar maydondagi plantatsiyalarda dorivor o‘simlik yetishtiriladi. O‘tgan yili gektarlar samaradorligi 40 sentnerga yetkazilib, 850 tonna hosil yig‘ib olindi. Uning katta qismi Rossiya, Qozog‘iston va Birlashgan Arab Amirliklaridagi hamkorlarga yuborildi.

### GES kaskadi qurilishida ish qizg‘in

Norin daryosida qurilayotgan umumiy quvati 228 MVtga teng 6 ta GES kaskadi viloyat tarixidagi eng yirik gidroelektr inshooti hisoblanadi. Ayni paytda uning tarkibidagi birinchi stansiya qurilishida hal qiluvchi bosqich boshlandi.



Inshootni O‘zbekiston mustaqilligining 34 yilligi tantanalari oldidan ishga tushirish rejalashtirilgan.

Norin GES kaskadi viloyatda “yashil” energiya ishlab chiqarish borasidagi istiqbolli loyihalardan biri sifatida yiliga qariyb bir mln. kVt/soat elektr toki ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘ladi. U to‘la ishga tushgach 430 mingga yaqin uy-joylarni energiya bilan ta‘minlash imkoniyati yuzaga keladi.

Qudratilla NAJMIDDINOV  
("Xalq so‘zi”).

## Imkoniyat

### Samarqand – investorlar nigohida

Samarqand viloyati bilan Xitoy hududlari o‘rtasidagi aloqalar “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasida yangi bosqichga ko‘tarildi va ushbu tashabbus hududlararo rivojlanish istiqbollarga keng yo‘l ochmoqda. Amalga oshirilayotgan savdo-iqtisodiy aloqalar natijasida oxirgi uch yilda Samarqand viloyati bilan Xitoy hududlari o‘rtasidagi tovar aylanmasi qariyb 3 baravar, kiritilgan xorijiy investitsiyalar hajmi esa 4 barobarga oshdi.

Hozirgi kunda Samarqandda Xitoyning 140 dan ortiq kompaniyalari faoliyat olib bormoqda. 2024-yilda viloyatga 300 million dollarlik elektrotexnika mahsulotlari import qilingani mahalliy ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish uchun katta ehtiyoj va bozor mavjudligini ko‘rsatmoqda. Bu borada “Shaanxi Electronic Information Group Co., Ltd” kompaniyasi bilan hamkorlikdagi loyihalar orqali ishlab chiqarishni mahalliyashtirish ko‘zda tutilmoqda.

Viloyat qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga boy hudud bo‘lib, meva-sabzavot, sharbatlar, quritilgan meva hamda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilish bo‘yicha mazkur kompaniya bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish mo‘ljallanmoqda. Shuningdek, Samarqandda volfram, kaolin, granit, marmar, travertin va kvars xomashyosining yirik zaxirasi mavjud. Bu qurilish materiallari ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport qilish uchun katta imkoniyat yaratadi. Xitoyning yana bir “Xinghe building materials” korxonasi bilan imzolanyotgan shartnoma esa ana shu xomashyo va zaxiralarni qayta ishlash hamda eksport qilishda qo‘l keladi.

Yirik turizm markazi hisoblangan Samarqand viloyatiga joriy yilda 5 million nafar xorijiy turistning tashrif buyurishi kutilmoqda. Ularning asosiy qismini xitoylik sayyohlar tashkil etadi. Turizmning rivojlanishi mehmonxona, transport, ta‘lim va xizmatlar sohasida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Ushbu yo‘nalishda “Kunming Kanghui” sayyohlik agentligi bilan o‘zaro ishni yo‘lga qo‘yish maqsad qilingan.

Bundan tashqari, Samarqand viloyatida umumiy maydoni 1,5 ming gektardan ko‘p bo‘lgan “Urgut” erkin iqtisodiy zonasi mavjud bo‘lib, unda chet ellik investorlar ishtirokidagi yuqori texnologiyali 200 ga yaqin sanoat korxonalari samarali faoliyat olib bormoqda. Ushbu iqtisodiy zonadagi 500 gektar bo‘sh yer maydonlarida istiqbolli loyihalarni joylashtirish uchun investorlarga qulay biznes muhiti yaratiladi.

Abdulaziz YO‘LDOSHEV  
("Xalq so‘zi”).



“Road Show” ko‘rgazmasidagi taqdimotlarda, jumladan, “B2B” – “Biznesdan biznesga” va “G2B” – “Hukumatdan biznesga” formatlaridagi muloqotlarda Xorazmning sayyohlik salohiyati keng targ‘ib etilib, o‘zaro manfaatli kelishuvlarga erishildi.

## Hamkorlik

Tashqi turizmni rivojlantirish, ayni yo‘nalishda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash borasidagi O‘mon, Kuveyt, Bahrayn va Qatar davlatlarida bo‘lib o‘tgan “O‘zbekiston – Ipak yo‘li durdonasi” sayyohlik forumida Xorazm viloyati delegatsiyasi faol ishtirok etdi.

### Xorazmning sayyohlik salohiyati targ‘iboti

YUNESKOning Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan qadimiy Xiva shahri, yangi barpo etilgan “Arda Xiva” xalqaro turizm markazi va viloyatdagi tibbiy, ziyorat, gastronomik va ekoturizm obyektlari tadbir ishtirokchilarida katta qiziqish uyg‘otdi. Jumladan, O‘mon

turizm qo‘mitasi raisi Ashir Muhammad Xorazm viloyati bilan turizm sohasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish borasida qator takliflar bildirdi.

Odilbek ODAMBOYEV  
("Xalq so‘zi”).

# Qalblarni nurga to‘ldiruvchi muqaddas qadamjo

Surxondaryoning purviqor tog‘ yon bag‘rida joylashgan Xonjiza qishlog‘i – yurtimizning eng go‘zal go‘shalaridan biri. Bu yerda tabiat nafasi, to‘lqinli daryo, shamol bilan suhbatlashadigan daraxtlar va eng muhimi, yuz yillar davomida qalblarni nurga to‘ldiradigan muqaddas ziyoratgoh bor. Bu So‘fiy Hisoriy-Xondizagi ziyoratgohi bo‘lib, uning sukutida ham, har bir g‘ishtida ham chuqur hikmat yashirin.

## Ziyorat turizmi

Bu yer nafaqat din ahli uchun, balki keng jamoatchilik, tadqiqotchilar, eko va madaniy turizm muxlislarini o‘ziga tortuvchi maskanlardan. Har bir ziyorat insonni o‘tmishga, ibratga, toza ruhga oshno etadi.

1878-yil. Sariosiyniing ildiziga cho‘kkan Xonjiza qishlog‘ida mulla Abdulvohid xonadonida bir chaqaloq tug‘ildi. U So‘fiy Hisoriy-Xondizagi nomi bilan tarixda qoldi. Bolaligidan ilmga chanqoq, odob-xilqoqda namuna bo‘lgan bu zot keyinchalik Buxorodagi Mir Arab madrasasida tahsil olib, tasavvuf yo‘liga kirdi. Toki bu yo‘l uni nafaqat oila ahli bilan, balki qalblar bilan bog‘ladi. U butun hayotini haqiqat va fazilatni yovishga bag‘ishladi. Mantiq, tarix, falsafa va aruz ilmlarini mukammal o‘rgandi.

Aytishlaricha, So‘fiy hazratlari huzuriga biror yurt kishisi ko‘ngli siniq bo‘lib kelsa, bu yerdan yuragi yumshab, ko‘zi yorqin bo‘lib qaytgan. Chunki u har bir insonda yaxshilik urug‘ini ko‘rardi. Uning tilida ham, nigohida ham ruhiy davo bor edi. Uning shogirdlaridan biri aytadi: “Ustoz biror marta odamni malomat qilmadi. Tanqid o‘rniga ibrat bilan ta‘lim berdi”.

Uning ukasi – domla Ayniddin ham so‘fiylik ilmini davom ettirgan, ikki olamli ilm sohibi bo‘lgan. Bu ikki barkamol insonning qabri bir ziyoratgohda – yonma-yon. Buni xalq “iqbol birligi” deb



ataydi. Qabristonda, shuningdek, Muhammad Yusuf Mayusiy, Eshoni Safar Xalifa kabi ilmu ma‘rifat vakillari ham dafn etilgan.

– So‘fiy Hisoriy-Xondizagi hamda domla Ayniddin bundan 500 – 600-yil muqaddam yashab o‘tgan shayx Nodirmuhammad Samarqandiy avlodlari sanaladi,

– deydi qishloq faxriysi Farhod Muhammadiyev. – Tasavvufchi ulamolar bobokaloni yo‘lini davom ettirib, shariat va tariqat ilmlarini chuqur o‘rgangan, shogirdlar tarbiyalab, keng ma‘rifat tarqatganlar. Bugungi kunda ulug‘ zotlarning qabrlari xalq orasida ziyoratgoh sifatida e‘zozlab kelinmoqda. 2006-yilda So‘fiy Hisoriyning “Jo‘shishi daryoi dars” she‘riy kitobi chop etildi. 2018-yilda qishloqdan oqib o‘tuvchi Xursand daryosi bo‘yiga, aynan So‘fiy Hisoriy-Xondizagiya nisbatan ehtirom ifodasi sifatida hashar yo‘li bilan maqbara va 100 o‘rinli masjid qurildi. Ziyoratchilar uchun har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratildi. 2019-yil fevral oyidan boshlab, mazkur ziyoratgoh “Vaqf” xayriya jamoat fondining

Bugungi tezkor hayotda insonning ma‘naviy ozuqaga bo‘lgan ehtiyoji yanada ortib bormoqda. Ana shunday paytda So‘fiy Hisoriy- Xondizagi ziyoratgohi bizga tarix orqali ruhiy boylikni, o‘tmishdagi insonlar sabog‘i orqali kelajakdagi qarorlarimizni mustahkamlashni o‘rgatmoqda.

Ma‘naviyat nuridan bahramand bo‘lish, shukronalikni anglash, qalbga orom bag‘ishlash istagida bo‘lgan har qanday ziyoratchi uchun bu maskan eshiklari hamisha ochiq.

Farhod ESONOV  
("Xalq so‘zi”).

Sport vazirligida joriy yilning 16 – 27-iyul kunlari Germaniyada o‘tkaziladigan Butunjahon yozgi Universiada o‘yinlarida O‘zbekiston delegatsiyasi ishtirokini muvaffaqiyatli ta‘minlash masalasiga bag‘ishlangan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Xalq so‘zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Qonunchilik palatasi Kengashi

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-642. 11 845 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;

e‘lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-6788

4772030 678001

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun o‘bman rasmiiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas‘ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:

100066,

Toshkent shahri,

Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.

Navbachi muharrir F. Bozorov.

Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:

Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘ZA yakuni — 00.40 Topshirildi — 02.15

1 2 3 4 5 6